

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

Toshkent Arxitektura Qurilish Instituti

M.X. MIRYUSUPOVA

**ARXITEKTURA VA
SHAHARSOZLIK TARIXI**

**«UYG‘ONISH DAVRI
ME‘MORCHILIGI»**

(XV-XIX ASRLAR)

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan (5.580100 - Arxitektura) bakalavriyat talim o‘z yanalishi
talabalari uchun «Uyg‘onish davri arxitekturasi» (XV-XIX asrlar)
fanidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etiladi*

**O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi
Toshkent-2005**

MIRYUSUPOVA M.X. - «San'at, Arxitektura va shaharsozlik tarixi»
uyg'onish davri arxitekturasi. XV-XIX asrlar (O'quv qo'llanma). T.,
TAQI, 2005. 80 bet.

Taqrizchilar: arxitektura fanlari doktori *NOZILOV D.A.*
katta o'qituvchi *ABDULLAEVA N.D.*

© O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2005.

Annotasiya

Ushbu o'quv qo'llanma arxitektura yo'nalishida ta'lim olaётgan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, arxitektura va shaharsozlik tarixi bo'limiga kiruvchi «Uyg'onish davri arxitekturasi» ni aks ettiradi. O'quv qo'llanma uyg'onish davri me'morchiligi, butun Yevropa me'morchiligida qanday va qachon boshlanganligi haqida to'liq ma'lumot beradi. Italiya, Fransiya, Germaniya, Angliya, Rossiya me'morchiligi va shaharsozligi, Barokko, klassisizm, rokoko, eklektika hamda shu uslubda ijod qilgan me'morlar va ular yaratgan inshootlar haqidagi materiallar o'rin olgan.

Talabalarga yetkazishga mo'ljallangan ushbu risolalar 15 mavzuga bo'lingan. Har bir mavzu so'ngida, mavzuni mustahkamlash uchun savollar, tayanch so'zlar ro'yxati berilgan.

Данное учебное пособие предназначена студентам обучающихся по архитектурному направлению, отражает «Архитектуру возрождения» входящий в отдел истории архитектуры и градостроительства. В этом учебном пособии описывается полная информация о том, когда и как начиналась архитектура возрождения всей Европы.

А также существуют материалы об архитектуре и градостроительстве Италии, Франции, Германии, Англии, России, о стилях барокко, классицизма, рококо, эklektika и об творении архитекторов в этих стилях, а также созданных ими сооружений.

Этот материал предназначенный для студентов разделяется на 15 тем. В конце каждой темы даны вопросы для укрепления темы и список ключевых слов.

Given teaching aid is intended for students at the architectural trend, reflects "Renaissance architecture" belonging to the section of architecture and town building history/ Teaching aid describes entire information about "Renaissance architecture" when how it started in Europe.

Also, there are materials of architecture and town building of Italy, France, Germany, England, Russia, about styles baroque, classicism, eclectic and creation of architects in these styles, also created constructions by them.

Given material intended for the students is divided into 15 themes. There are some questions for strengthening the themes and the list of terms at the end of each theme.

Mundarija

Kirish.....	6
1-Mavzu. Uygʻonish davri arxitekturasi.....	8
2-Mavzu. Uygʻonish arxitekturasiining ilk davri.....	10
3-Mavzu. Uygʻonish davri arxitekturasiining yuksalgan davri.....	17
4-Mavzu. Uygʻonish arxitekturasiining soʻngi davri.....	27
5-Mavzu. Uygʻonish arxitekturasiining soʻngi davrida Saroy-bogʻ sanʻatining rivojlanishi.....	31
6-Mavzu. Barokko arxitekturasi.....	34
7-Mavzu. Barokko uslubning boshlangʻich davri.....	37
8-Mavzu. Yuksalgan barokko arxitekturasi.....	39
9-Mavzu. Fransiya klassisizmi.....	43
10-Mavzu. Fransiya Renessansining rivojlangan davri.....	49
11-Mavzu. XVII asrning birinchi yarmida Fransiya arxitekturasi.....	56
12-Mavzu. XVII asrning ikkinchi yarmida Fransiya arxitekturasi.....	59
13-Mavzu. Fransiya XVIII asr arxitekturasi.....	63
14-Mavzu. XIX asrda Fransiya arxitekturasi.....	68
15-Mavzu. XVIII asr rus klassisizmi.....	71
Xulosa.....	78
Foydalanilgan adabiyotlar.....	79

*O'zlikni anglash tarixni
bilishdan boshlanadi.*

I.A.Karimov

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov Oliy majlisning to'qqizinchi sessiyasida kadrlar tayyorlash Milliy dasturi va butun ta'lim tizimini islohati haqida – hayotimizni hal etuvchi muhim masalalar qatorida ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, uni yangi zamon talabi darajasiga, ko'tarish, barkamol avlodimiz kelajagiga dahldor qonun loyihalari ham bor – degan edi. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi maqsad va vazifalar strategiyasidan tortib to ta'lim – tarbiya jarayonining har biri negizida inson asosiy omil hisoblanadi.

Kadrlar tayyorlash tizimida shaxs bosh sub'ekt sifatida ko'riladi. Bu bir vaqtning o'zida ta'limiy xizmatlarni ham iste'molchisi; ham yaratuvchisi deb qaraladi. Jamiyat va davlat, ishlab chiqarish, fan va uzluksiz ta'lim barkamol ijodkor shaxsning shakllanishida kafolatdir. Prezident I.A.Karimov Milliy dastur to'g'risidagi o'z nutqida faqatgina chinakam ma'rifatli odam inson qadriini millat qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'zligingni anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin deb ta'kidlagan edi.

Har tomonlama yetuk, salohiyatli kadrlarning yangi avlodi istiqbolga monand vazifalar qo'yish va ularni yechishga qodir, yuqori saviyali fikrlash madaniyatiga ega, siyosiy ijtimoiy va ilmiy texnikaviy axborotlar dunyosida mustaqil o'z yo'lini tanlay oladigan bo'lishi kerak.

*Tarix – xalq manaviyatining asosidir.
Xaqqoniy tarixni bilmasdan turib esa
o'zlikni anglash mumkin emas.*

I.A.Karimov

KIRISH

XIV - XV asrlar arafasida g'arbiy yevropada yangi me'moriy sistema, stil, uyg'onish (Renessans) vujudga kela boshladi. Uyg'onish davri arxitekturasini jahon arxitekturasini taraqqiyotiga yangi pog'onani belgiladi.

Uyg'onish davri arxitekturasini asosiy bir ko'rinishlaridan biri Gotika konstruksiyadagi toshli karkasdan voz kechish, yangi konstruktiv sistemaga sodda, tejamlı, me'mor mehnatini yengillashtirdi.

Bu bir butun inshootlar sistemasi g'ishtli devor va ravoqlar ularda yog'ochdan foydalanganlar g'ishtli konstruksiyalar oblisovka qilingan (shtukaturka yoki toshli marmarlı ham bo'lishi mumkin).

Erta uyg'onish davri arxitekturasini xarakterli ahamiyatli momenti quyidagilarni kiritish mumkin: unga katta bo'lmagan kolonnalardagi arkadalar romlarda simmetrik to'ldirilgan arnamentlar yoki shuni ifoda etuvchi rel'efli xaykaltaroshlik pillyastralar sipochkali arnamentlar rustayo'nalishi (rustavka qayta ishlash) uslubi katta tomli devor to'g'ri to'rtburchak devorga ishlov berish uchun bino fasadi karnizi osilib turuvchi katta chiqib turgan Rim arxitektura bo'limlari usuli erda uyg'onish arkadalari egallaydi. Ilm-fan taraqqiyoti yangi qit'alar dengiz yo'llari xalqlarning o'zaro aloqasi jadallashuviga imkoniyat yaratdi. Jahon xalqlarini ijtimoiy hayoti faollashdi. Yevropa mamlakatlarida taraqqiyot bir muncha tezlashdi. Ular ko'pgina o'lkalarni bosib olib o'z hukmronliklarini o'rnatdilar. Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Angliya, Gollandiya va boshqa Yevropa mamlakatlari uchun arzon xom ashyo ishchi kuchi va yangi bozorlar ochilib ular tez rivojlana boshladi.

Jahon ijtimoiy siyosiy va madaniy hayotida ro'y bergan bu o'zgarishlarada Yevropa muhim o'rin tutadi. Yevropa kommunali kapitalistik davlat sifatida rivojlana boshladi. Yevropa mamlakatlarida eski tuzimga qarshi noroziliklar xalq g'alayonlari kuchaydi. Bu XVII asr oxiriga kelib feodalizmning uzl kesil inqiroziga sabab bo'ldi. Ijtimoiy munosabatlar o'zgardi. Uning yangi shakllari yuzaga keldi. Ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy kurashning kuchayish san'ati va madaniyatining ijtimoiy hayotda mavqeini oshirdi.

Bu davrda Yevropa san'ati avvalgi an'analar, eng avvalo uyg'onish davri an'analari zaminida komol topti. Unda ham inson, uning jismi, his-tuyg'u, xayol-o'ylari, orzu-istaklari ifodasi asosiy mavzu bo'ldi. Inson hayoti, uning turmush tarzini to'laqonlik talqin etish shu davr asarlari uchun muhim yo'nalish bo'lib qoldi. Tabiat rel'efi shu davrda yaratilgan me'morchilik majmualarida hisobga olindi. Me'morlik binolari ko'cha, maydon va tabiyat bilan yanada uyg'unlashdi. Suv kaskadlari va favvoralar qiziqish ortdi. Grafika rivojlandi. Haykaltaroshlik imkoniyatlari yanada ortib u me'morlik ansambllarida keng qo'llandi, kirib keldi, xiyobon bog' san'atida keng qo'llanildi. Bu davrda Yevropa mamlakatlarini iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti ijtimoiy kuchlari bir xil darajada emas edi. Bu davrda madaniyatda qator g'oyaviy – badiiy yo'nalishlarning paydo bo'lishi avvalo Ayni shu hodisa bilan bog'liqdir. XVII "Barokka asri» deb ham yuritiladi. Bu esa bejiz emas. Chunki davrning g'oyaviy

estetik qarashlari ayni shu uslubga ko'proq o'z ifodasini topdi. San'at tarixida XVII asr me'morichiligining o'ziga xos jihatlarini ta'riflash uchun qo'llanilgan, keyinchalik tasviriy san'atga nisbatan ham ishlatilgan barokko uslubining belgilari, dastlab Italiyada paydo bo'lgan. Viniola, Palladio me'morlik asarlarida, Mikelanjelo asarlarida bu narsa yaqqol namoyon bo'ladi. Barokko uslubiga xos dekorativlilik, nur-soya o'yiniga e'tibor berish va his-hayajonga to'la asarlar yaratish tamoillari tezda ko'pgina san'atkorlarni o'ziga jalb eta boshladi. Bu xususiyat G'arbiy Yevropa mamlakatlariga yoyiladi va mahalliy san'at uslubi va an'analari ta'sirida o'ziga xos milliy ruh kasb eta bordi, jumladan Ispaniya va Portugaliyada barokko nihoyatda xashamdor jimjimadar edi. Buning sababi bu yerda mahalliy naqqoshlik san'ati ravnaq topganligidir. Germaniyada barokko-gotika ta'sirida rivojlanganligi seziladi. Flakdriyada «lamond barokkosi» shakllangan bo'lsa, Fransiyada barokko klassisizm tamoyillari ta'sirida namoyon bo'ldi. Barokko Angliya, Skandinaviya mamlakatlari keyinroq esa Rossiyaga ham kirib keldi. Barokkoga xos fazilatlar Rim me'morligida o'zining klassik ko'rinishiga erishdi. Barokko intererlarida dekorativ rang tasvir, haykal va kolonnalar muhim o'rinni egallaydi. Ular xonalarga badiiy mazmun kiritadi.

Barokko san'atida fazoviy kenglik masalasi ham o'ziga xos talqin etiladi. U kompozitsiyada yagona ansambl tashkil etuvchi omil vazifasini bajaradi. Barokko san'atida rang suratlari ham muhim ifoda vositasi sifatida ishtirok etadi.

XVII asrga xos yana bir yirik badiiy uslub klassisizm ham Fransiyada paydo bo'ladi. Klassisizm vakillari aql idrokni san'atga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi yagona me'zon deb hisoblashgan.

Klassisizm uslubi tarafdorlari ham uyg'onish davri san'atidan ilhomlandilar. Ular ham ideal obrazga murojaat qildilar.

Klassisizm uslubining o'ziga xos jihatlari dastlab XVII asrning ikkinchi yarmida Italiyada me'morlar Viniola va Palladio ijodida sezila boshladi. Klassisizmga xos xususiyatlar me'morchilikdagi shakllarning geometrik aniqligi va ritmi mantiqiy rejalashtirilishi va keng ko'lamda antik me'morlik shakllaridan foydalanishda namoyon bo'ladi. Klassisizm uslubida ishlangan me'morlik kompozitsiyalarida order tizimi muhim rol o'ynadi. Me'mor ko'pincha order va ularning nisbati hamda shakllarini antik davrdagigacha xos ifodalashga harakat qiladi. Bunda interer ham xarakterli. Unda ham yaxlitlik va ulug'vor tantanavorlik mavjud bo'lishi kerak. Ustunlar qatori va devor yuzasi tekisliklari ritm va yaxlitlik va tantanavorlik ko'rinishiga xalaqit bermasligi kerak. Klassisim shahar qurilishi san'atida ko'proq renessans va barokko uslubi tamoillarini ijodiy o'zgartirgan tarzda ko'rindi va rivojlandi. Tabiat ko'rinishlari me'morlik kompozitsiyalarida majmualarida hisobga olinib klassisizmning talablari asosida o'zlashtirildi. U o'z taraqqiyotida boshqa uslublardan masalan barokko uslubidan ham ta'sirlandi uning ayrim tomonlarini o'zida uyg'unlashtirdi. XVIII asrda Yunon va Rim tarixi bo'yicha qilingan kashfiyotlar Pompey, Gerkulanum kabi qadimiy shaharlarni ochilishi nemis olim va san'atshunoslari Gete va Vinnelmanlarning ilmiy nazariy faoliyatlari klassisizm uslubi rivojlanishiga turtki bo'ldi. Antik san'atga qiziqish yanada ortdi. XVIII asr oxiri va XIX asrda esa bu uslub jahon san'atida yetakchi badiiy uslublardan biriga aylandi.

1-Mavzu. Uygʻonish davri arxitekturasi

Oʻz taraqqiyotini XV- XVI asrlarda boshidan kechirgan bu yangi madaniyat tarixda «Uygʻonish» deb nom oldi. Bu iborani italiyalik rassom va sanʼatshunos Djordj Vazari Italiyada sanʼat uzoq oʻrta asrdan soʻng yana qaytadan uygʻonganligi sababli ishlatgan va asosan Jotto ijodiga nisbatan qoʻllanilgan edi. Keyinchalik esa bu keng mazmun nasib etib Italiyada soʻngra Yevropaning boshqa mamlakatlarida vujudga kelgan, oʻrta asrlar davridan farq qiladigan sanʼatni taʼriflash uchun qoʻllanila boshlagan.

Uygʻonish davri arxitekturasi va sanʼati oʻz xarakterini Italiyada toʻliq nomoyon etib qator taraqqiyot bosqichlarini boshidan kechirdi. Bular asosan quyidagilardan iborat:

1. Uygʻonish arafasi davri – proterenesans (XIII-XIV asrlar).

2. Ilk uygʻonish davri – kvatragento I (XV asr)

Uygʻonish davri haqidagi adabiyotlarda koʻpgina asarlarning italyancha atamasi: XIII asr – duchento, XIV asr – trechento, XV asr – kvatrachento, XVI asr chinkvachento ishlatiladi.

3. Yuqori uygʻonish davri (XV asrning 90 yillari – XVI asrning 20-30 yillari).


4. Soʻnggi uygʻonish davri (XVI asrning ikkinchi yarmi).

Uygʻonish davri taraqqiyoti hamma mamlakatlarda bir xil boʻlmaydi. Masalan, Germaniyada soʻngi uygʻonish Niderlandiyada esa yuqori uygʻonish davri taraqqiyotini boshidan kechirmagan. Uygʻonish davri insoniyat taraqqiyotidagi muhim bosqich edi. Bu insoniyat shu davrgacha oʻz boshidan kechirgan hamma oʻzgarishlar ichida eng buyuk progressiv oʻzgarishi edi.

Bu shunday davr ediki, davr ulugʻ siymolarga muhtoj edi va bu davr oʻz tafakkur kuchi, ehtiros va xarakter jihatidan mukammallik va olimlik jihatidan juda ulugʻ siymolarni yetishtirib berdi. Uygʻonish davri sanʼati meʼmorligi antik Dunyo sanʼati meʼmorligidan taʼsirlandi. Uning yodgorliklarini qund bilan oʻrgandi, lekin bu davr ijodkorlari uning quliga aylanadilar. Real voqelikka goʻzallikka qiziqish davr taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega boʻldi.

Meʼmorlik yangi tendensiyalarining shakllanishiga xizmat qildi. Jumladan meʼmorlar qadimgi anʼanalarni oʻzlashtirib uni yangi mazmun bilan boyitdilar. Shu bilan birga meʼmorlikning yangi konstruksiyalarini vujudga keltirdilar, koʻp qavatli uylar, yangi qiyofadagi ijtimoiy binolar qad koʻtardi. Binoning tashqi va ichki tomonini bezash, kenglikni tashkil etish borasida ham qator yutuqlar qoʻlga kiritildiki, ular keyingi Yevropa sanʼati taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega boʻldi. Italiyaning sharq va gʻarb orasidagi

muhim savdo yo'lidagi joylashishi unda kapitalistik munosabatlarning juda erta shakllanishiga olib keldi. Savdo-sotiqning rivojlanishi, o'zga yurtlar bilan aloqasining intensivligi hunarmandchilikning rivojlanishiga zamin yaratdi. Italiyaning Yevropada birinchi bo'lib kapitalistik mamlakatga aylanishiga imkon berdi. Ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan bu xususiyat san'at va madaniyatda o'z ifodasini topdi. Bu o'zgarish savdo va ishlab chiqarish rivojlangan O'rta Italiyada joylashgan Florensiya, Piza, Siena hamda shimoliy qismidagi Genuya, Milan, ayniqsa savdogar va bankirlar respublikasi bo'lgan Venesiyada juda sezilarli bo'ldi.



Florensiya Plani: 1-Santa-Kroche darvozasi; 2-Santa-Kroche cherkovi; 3-Santa-Kroche maydoni; 4-Vekkio palassosi; 5-Sinorii maydoni; 6- dei Lansii lodjiyasi; 7-Uffisii; 8-del Podesta (Bardjello) palassosi; 9-sobor; 10-sobor maydoni; 11-San-Djovanni baptisteriy; 12-Medichi-Rikkardi palasosi; 13-San-Lorenzo cherkovi; 14-Santa-Mariya Novella cherkovi; 15-Strossi palassosi; 16-Ruchellai palassosi; 17-shahar istehkomi minora-darvozasi; 18-San-Minyato cherkovi; 19-ponte alle Grasie; 20-ponte Vekkio; 21-Boboli bog'i; 22-Pitti palassosi; 23-Pitti maydoni; 24-ponte Trinita; 25-San-Spirito monastiri; Santa-Mariya del Karmine va Brankachchi kapellasi; 27-Piza va Livorno yo'li.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Uygʻonish davri arxitekturasi umumiy xarakteristika bering.
2. Italiya Uygʻonish davri nechta taraqqiyot bosqichlaridan iborat?
3. Uygʻonish davri taraqqiyoti boshqa mamlakatlarda qay tariqa rivojlandi?
4. Italiyada Uygʻonish davri haqida nima bilasiz?

Mavzuda uchraydigan tayanch soʻzlar:

Uygʻonish, antik davr meʼmorligi, protorenessans, renessans real voqelik.

2-Mavzu. Uygʻonish arxitekturasi ilkinchi davri

XIV asrning oxiridan boshlab Florensiya Italiyadagi muhim siyosiy va madaniy markazlardan biriga aylana boshladi va butun Italiya badiiy madaniyati va sanʼatining keng koʻlamda qayta yangilanishi va rivojlanishiga turtki boʻldi. XV asrda Florensiyada yashab ijod etgan buyuk sanʼatkorlar Mazachcho, Donatello, Brunellesko va ularning izdoshlari oʻz ijodlarida uygʻonish davri sanʼati prinsiplarini namoyon etdilar. Bu sanʼatkorlarning asarlari gumanizm gʻoyalari bilan sugʻorilgan boʻlib, ular oʻz asarlari markaziga inson obrazini qoʻydilar. Ilk uygʻonish davri sanʼatkorlari protorenessans sanʼati yutuqlarini davom ettirgan holda, uni ilmiy jihatdan boyitdilar, realistlik sanʼatning yangi qirralarini ochdilar. Ilk Uygʻonish davrida antik sanʼatga qiziqish yanada ortdi. Hayotni chuqur oʻrganish asosida asar yaratish prinsiplari esa sanʼatkorlarning fikr doirasini yanada kengaytirdi. Bu davrda ulkan binolar, gʻoyat katta gumbazli va qator ustunli savor, saroy va ibodatxonalar qurildi. Florensiyalik meʼmorlar antik meʼmorlik anʼanalari va order sistemasidan unumli foydalandilar va bu anʼanalarni oʻrta asr Italiya meʼmorlik texnikasi yutuqlari, mahalliy qurilish material va konstruksiyalari bilan uygʻunlashtirib, renessans meʼmorligi uslubini yaratdilar. Bu uslub rivojiga gotika hamda Vizantiya meʼmorligi uslubi ham samarali taʼsir qildi. Renaissance meʼmorligida devor yuzasi tekisligining yaxlitligiga eʼtibor kuchaydi, meʼmorlik kompozitsiyasining vertikal va gorizontal chiziqlar ritm va mutanosibligi, xonaning kengligi, uning yaxlit va koʻrkamligiga ahamiyat berila boshladi. Bu davrda fuqaro meʼmorligi monastrlar kompleksi qurilishi, ibodatxonalar qurilishi ham yangilandi. Shaharning ijtimoiy-maʼmuriy markaz loyihasi va tuzilishi bilan bogʻliq boʻlgan yangi tipi paydo boʻldi. Uygʻonish davriga xos boʻlgan xususiyat real hayotga murojaat eta boshlandi. Uning bosh qahramoni inson, uning

his-tuyg'u va orzu-istaklari bo'lib qoldi. XV asr boshlarida Florensiya boy bank xo'jayini Kazimo Medichi qo'lga o'tdi. U burjua respublikasining saylanmagan hukmdoriga aylandi. Dono siyosatchi, ayyor diplomat Medichi va uning sulolasi hokimiyat tepasida deyarli XV asrning oxirlarigacha turdi. Kazimo Medichi hokimiyatini mustahkamlash maqsadida o'z atrofiga mashhur san'atkor va olim, donishmandlarni to'pladi, ularni ish bilan ta'minladi, iste'dod egalariга homiylik qildi. Florensiya XV asr davomida Italiyaning muhim madaniy o'chog'i ilk uyg'onish san'atining vataniga aylandi. 1453 yili Vizantiya turklar tomonidan bosib olingandan so'ng u yerdagi olim va san'atkorlar Florensiyaga kela boshladilar.

XIV asr oxiri XV asr boshlari Italiya me'morligida paydo bo'lgan yangi tendensiyalar davrning buyuk me'mori Filippo Brunellesko (1377-1446) ijodida o'z ifodasini topdi. Brunellesko Florensiyada notarius oilasida dunyoga keldi, shu yerda gumanitar fanlardan chuqur bilim oldi, lekin uning san'atga bo'lgan qiziqishi dastlab zargarlik asoslarini egallashga, so'ng badiiy ijodiyotning boshqa turlarini ham qiziqish bilan o'rganishga da'vat etdi. U 1401 yili Florensiyadagi baptisteriya bronza eshiklari uchun rel'ef ishlab, konkursa qatnashib, hay'at a'zolarining olqishiga sazovor bo'ldi, uning rel'efi yaxshi baholandi, lekin amalda konkurs qatnashchisi Larenzio Giberti qabul qilindi. Shundan keyin Brunellesko o'z faoliyatini asosan me'morchilikka bag'ishladi. U me'morlar asosida birinchi bo'lib katta gumbazli bino qurish muammosini hal qildi. Uni ilk asari Florensiyadagi Mariya del Fiore Sobori tepasiga ishlangan deametri 42 m bo'lgan 8 qirrali gumbaz bo'ldi. Brunellesko karkas uslubidan foydalanib o'sha davrda eng katta bo'lgan gumbazni qurishga erishdi. Soborning ulug'vor aniq ko'rinishini ifodalagan bu gumbazning qirralari va eng tepasiga o'rnatilgan me'morlik bezagi binoga alohida salobat va fayz baxsh etib o'zida uyg'onish davri madaniyatining xarakterli tomonini aks ettiradi, inson aql-zakovati tantanasining haykali sifatida namoyon bo'ladi. Davrning gumanistik intilishlarini ko'z-ko'z qiladi. Bu gumbaz keyingi Italiya va Yevropa me'morligi taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi.

Me'morlik muhim asarlaridan yana biri Florensiyadagi 1419 yilda qurila boshlagan tarbiya uyi binosidir. Bu binoda ilk uyg'onish me'morligi uslubi yaqqol namoyon bo'ldi. Bu ilk uyg'onish fuqaro me'morligining dastlabki namunasi bo'lib, davrning ilg'or qarashlariga hamohangdir.

Ikki qavatdan iborat bo'lgan bu bino o'z kompozitsiyasining soddaligi va nisbatlarining yengilligi, gorizantal chiziqlarning aniqligi bilan ajralib turadi. Binoning pastki qavati loja (ayvoncha) bilan boshlangan bo'lib, nafis ustunlarni bir biriga tutashtirib turgan yarim arklari


binoni yanada fayzli qiladi. Unga latofat baxsh etadi. Bu ota-onasiz yetim-yesirlarni o'z quchog'iga olgan binoning gumanistik xarakterini namoyon etadi. Arklar orasiga ishlangan dumaloq medalonlarda esa yosh godaklar tasviri binoning mazmun maqsadini ochib, binoning nufuzini yanada o'rtiradi.

Tarbiya uyi qurilishida topilgan konstruktiv va dekorativ uslub keyinchalik Brunellesko qurgan boshqa binolar qurilishida jumladan Florensiyadagi Santa Kroche cherkovidagi Passi kapellasida rivojlantiriladi. Uncha katta bo'lmagan, bu binoning nozik topilgan nisbatlari, dekorativ elementlarining me'yorida ishlatilishi unga yaxlitlik va ko'rkamlik baxsh etgan.



XV asr Italiya me'morligining yutuqlaridan yana biri palassio (shahar saroyi) qurilishi prinsplarida namoyon bo'ladi. Bu qurilish keyinchalik shahardagi ijtimoiy-ma'muriy binolar qurilishiga ta'sir qildi va asos qilib olindi. Ilk Uyg'onish davri

me'morligining yana bir buyuk ijodkori Leon Battista Alberti (1404-1474) dir. U XV asr o'rtalaridagi yirik me'morgina emas, balki uning nazariyotchisi, ensiklapedist olim hamdir. Alberti «Me'morlik to'g'risida 10 kitob» nomli asarida antik yodgorliklarni o'rganish asosida o'zi yaratgan yangi me'morlik kompozitsiyalarining ilmiy nazariyasini bayon qildi. Uning izlanishlari yuqori uyg'onish davri me'morligi uslubiga asos yaratdi. Florensiyadagi Rugelan palasiosi Albertining tugallangan yetuk asarlaridan hisoblanadi. Ochiq hovli atrofida qurilgan to'rt burchak shaklidagi yaxlit 3 qavatli bu saroyda Alberti devorlarni qismlarga ajratadigan pilyastr, antabliment va tekis devor yuzasini yengil rusta bilan pardozlash hisobiga o'ziga xos go'zallik baxsh etadi.


Bu binoda antik an'analar (Rim me'morligi, birinchi galda, Kollezeyning order sistemasiga asoslanib) yangi badiiy mazmun va plastik ifodalilik bilan boyidi.




Florensiyadagi Santa-Mariya del Fiore soborining gumbazi. 1420-1434 y. Arx. Brunellesko. qirqim.




San Lorenzo cherkovi. Interer. Arx. Brunellesko.
Interer 3. Cherkovning eski ko'rinishi 1421-1428.




Florensiya. Tarbiya uyi. 1444-1445 y. Arx. Brunollesko.
1. Umumiy ko'rinish. 2. Lodjiya. 3. Fasad fragmenti.





Tarbiya uyi. 1444-1445 y. Arx. Brunellesko. Plan.



Florensiyadagi Kapella Passi. 1430-1443 y. Arx. Brunellesko. Plan



Florensiyadagi Kapella Passi. 1430-1443 y. Arx. Brunellesko. Qirgim.



Florensiyadagi Passi Kapellasi. 1430-1443 y. Arx. Brunellesko.
1. Umumiy ko'rinishi. 2. Lodiya fragmenti. 3. Lodi gumbazi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:











1. Uyg'onish arxitekturasi haqida nimani bilasiz?
2. Uyg'onish arxitekturasi haqidagi siyosiy-madaniy muhit tasnifi?
3. F. Brunellesko ijodi haqida nimani bilasiz?
4. L.B.Alberti ijodi haqida nimani bilasiz?

Mavzuda uchraydigan tayanch so'zlar:

Florensiya, Kazimo Medichi, F.Brunellesko, L.B.Alberti




3-Mavzu. Uygʻonish davri arxitekturasining yuksalgan davri

Atlantika okeani orqali yangi savdo yoʻllarining ochilishi, 1458 yili Istambulning turklar tomonidan bosib olinishi. Sharq va Gʻarb orasidagi savdo yoʻllarining ahamiyati yoʻqolishiga olib kela boshladi. Yaqinlashib kelayotgan inqiroz ijtimoiy va iqtisodiy hayotga oʻz muhrini qoʻya boshladi. XV asr oxirlariga kelib, shahar hunarmandlari tabaqalarining demokratik harakatlari kuchaydi. Bu sanʼat taraqqiyotida yangi zamin yaratara boshladi. Bu xususiyat dastlab Florensiyada oʻzini koʻrsata boshladi.






Florensiyadagi Medichi Rikkardo Palasosi. 1444-1452 y. Arx. Mikelasso. 1. Zal kamizi fragmenti. 2. Qirgim. 3. 2-qavat plani. 4. 1-qavat plani. 5. Ichki xovli ustunlarining Kapiteli. 6. Kirish. 7. Ichki xovli. 8 Eshik fragmenti. 9-10 Xovli detallari. 11. Fasad fragmenti.

Ilk uygʻonish davri oʻzining umrini tugatib, yuqori uygʻonish davriga asos yarata boshladi. Bu davr Florensiyaning hukmdori «Ajoyib-gʻaroyib Lorenzo» deb nom chiqargan Lorenzo Medichi qoʻzgʻalon va noroziliklarini qattiqqoʻllik bilan bosib, hukmronligini saqlab qoldi.




Florensiya. 1. Medichi Rikkardi Palassosi. 1444-1452 y. Arx. Mikelasso. Umumiy koʻrinish. 2. Palasso Ruchellan. 1446-1452 y. Arx. Alberti loyihasi boʻyicha. Umumiy koʻrinish. 3. Palasso Pitti. 1458 yillarda qurish boshlangan. Umumiy koʻrinish.

U o'z davlatini tinch va osoyishta ko'rsatish maqsadida mashhur san'atkorlarni to'pladi, ularning ijodidan o'z davlatini obro'sini oshirishda foydalandi. Lekin bu tashqi tomonidan farovon va osoyishta ko'ringan Florensiya ichida pessimist, ertangi kunga umidsizlik bilan qarash kayfiyati hukm surar edi. Ana shu kayfiyat yetuk ijodkorlarning asarlarida, juda noziklashgan saroy san'ati ko'rinishida namoyon bo'ldi.



Florenso. 1-3 Palazzo Pitti, 1458 yillar atrofida qurilish boshlangan, Orqa fasad – XVI asr. Orqa fasad fragmenti, (arx. Ammanati) Santa Mariya del Fiore sobori ko'rinishi bilan. Hovli fragmenti. Oyna. 4. Palazzo Strossi. 1489-1536. Arx. Benedetto di Maynano i Kronaka. Umumiy ko'rinish.



Santa-Mariya delle Grazie cherkovi (Aresso yaqinida). Portik. Arx. Benedetto da Mayyano. 2,3. Florensiyadagi Gondi palassosi. 1488-1500 y. Arx. Djulyano da Sangallo. Kapitel, xvli.

XV asr ikkinchi yarmida Venetsiyada ham uyg'onish san'ati prinsplari rivojlana boshladi.

Italiya ilk uyg'onish davrining yuqori uyg'onish davriga o'tish chegarasini belgiladi. Vizantiya, G'arbiy Yevropa davlatlari bilan yaqin aloqada bo'lgan boy savdogarlar respublikasi Venetsiya san'atkorlari Sharqning boy, serjilo va erkin san'ati va gotika an'alarini o'zlashtirgan holda o'ziga xos jozibador san'at maktabini yaratishga muvassar bo'ldilar. Venetsiyaning yuqori uyg'onish davri san'ati o'z prinsplarini shakllantirishda, keyingi Venetsiyaning buyuk koloristlari uchun zamin yaratdi. Fransuz qo'shinlarining Italiya yerlarining bosib olishi uning siyosiy va iqtisodiy qudratini bo'shashtirib yubordi. Mamlakatning dushmanga to'liq qaram bo'lib qolish xavfi tug'ildi. Ana

shu davrda xalqning o'z ozodligi yo'lida milliy butunligi uchun kurash tuyg'usi ortdi, boshqarishning respublika formasi uchun kurashdilar. Bu katta va muhim ijtimoiy ko'tarinkilik yuqori uyg'onish davri san'ati rivojlanishining zaminini tashkil etdi. Yuqori uyg'onish davri prinsplari Italiyaning muhim badiiy markazlari bo'lgan Florensiya, Rim va Venetsiyada o'zining tugal ko'rinishlarini nomoyon etdi. Yuqori uyg'onish davri nisbatan qisqa, ya'ni XV asrning 90-yillaridan XVI asrning 30-yillariga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Lekin mazmunan bu davr juda ulug' va Italiya san'ati taraqqiyotining «Oltin asri» hisoblanadi. Shu davrda yashab ijod etgan buyuk titanlar Leonardo Da Vinchi, Rafael Santi, Mikelanjelo, Tinseon o'z mohiyati jihatidan chuqur mahorati jihatidan yuksak barkamol asarlar yaratdilar. Ular o'zlarining har tomonlama o'tkir va bilimdonliklari bilan ham o'z davrlarining ideal kishilari timsoliga aylandilar.

Jismoniy baquvvat, ma'naviy barkamol har qanday diniy ta'sirlardan holi bo'lgan, o'zi va o'zgalar uchun kurasha oladigan xalq manfaatini o'z manfaatidan yuqori qo'ya oladigan inson shu davr san'at asarlarining bosh qahramoniga aylandi. Shu bilan birga, yuqori



uygʻonish davri sanʻati qoʻynida tushkunlikni targʻib etuvchi gumanizm gʻoyalaridan uzoq boʻlgan manerizam oqimi yoyila boshladi.

Yuqori uygʻonish davri meʼmorligining asosiy prinsplari Rimda shakllandi va rivojlandi. Davrning gumanistik prinsplari ulugʻvor va tantanali meʼmorlik kompozitsiyalarida oʻz ifodasini topdi. Amaliy ijodda antik meʼmorlik orderlari erkin va ijodiy ishlatila boshladi. Italiyada rivojlanib kelayotgan meʼmorlik uslublari umumlashtirilib yagona meʼmoriy uslub yaratildi.


Donato DʻAnjelo Bramante (1444-1514) yangi davr meʼmorligining asoschisi va yirik vakilidir. U oʻz ijodini Milanda (1472-1499) boshladi. Lekin Rimga koʻchib kelgandan keyingina bu yerda antiqa sanʻatini oʻrganish va oʻzlashtirish asosida oʻsha davr kishilari qarashlariga mos boʻlgan bir qator yirik meʼmorlik kompozitsiyalarini ishlab davrning xarakterli uslubini yaratdi. Uning bu yangi prinsplari Tampeto nomlangan ijodxonada nomoyon boʻldi. Planda aylanasimon ishlangan gumbazli bino atrofi ustunlar bilan oʻrab chiqilgan hajmi jihatdan katta boʻlmagan bu bino oʻzining manumentalligi bilan yaxshi taassurot qoldiradi.

Bramante ijodining eng yuksak namunalari Vatikanda qurilgan binolardir. Rim papasi Vatikanni rekonstruksiya qilishni maqsad qiladi va uni Bramantega topshiradi.

U bu yerda mavjud dastlabki binolarni tartibga keltirish va ulardan yagona ansambl tuzishga kirishadi. Qator galereya va zinalar qurdiradi, keng, bahavo, quyosh nuriga toʻla hovlilar yaratib, yirik ansambl tashkil etadi. Bramantening muhim asarlaridan biri Rimdagi avliyo Petr soborining loyihasidir. Meʼmor bu bino qurilishiga markaziy qubbali bino qurish maqsadini asos qilib oldi. Sobor plani asosiga kvadrat va uning ichida hamma tomoni teng boʻlgan Grek buti olingan. Pastki qator qurilmalar ustiga oʻrnatilgan gumbaz ustunlar bilan oʻralgan, uning tepasi-



Urbinodagi gersog saroyi, 1447 yildan 1447 yillar. Arx. Luchiano da Laurana. 1. Portal. 2. Interer. 3. Ichki xovli.




Santa-Mariya cherkovi, Milandagi Santa-Satiro cherkovi yaqinida joylashgan, 1486 y. Arx. D. Bramante. Umumiy ko‘rinish. Plan: 1-sakristiya; 2-perspektiv qurilish fokusi; 3-gumbazosti kenglik; 4-chorrahali nef; 5-haqiqiy xor; 6-illyuzor xor; 7-kapella.

da to‘nkarilgan qozonni eslatuvchi katta (deametri 43 m) bo‘lgan gumbaz joylashgan.


Bramante loyihasi o‘sha vaqat gumbaz osti plani va soborning tashqi devorlarini qurishga ulgurdi. U vafot etganidan so‘ng sobor qurilishi bilan qator me‘morlar shug‘ullandilar. Bramante palasso qurilishi san‘atida ham muhim rol o‘ynaydi pilyastr, gorizantal tasma va karnizlarning o‘ziga xos yaxlit va soddaligi bilan qurilgan binolariga monumental va ulug‘vorlik baxsh eta oladi.

Florensiya ilk uyg‘onish davri an‘anlari yuqori uyg‘onish davri uchun asos qilib olindi va rivojlantirildi.

Leonardo Da Vinchi (1452-1529). Leonardo Da Vinchi qishlog‘i yaqinida notarius oilasida dunyoga keldi. Leonardo 17 yoshlik vaqtda otasi Florensiyaga ko‘chib o‘tadi. Shu yerda Leonardo Andrea Verokkio ustaxonasida tasviriy san‘at borasidagi bilimini oshiradi. U o‘z ustози Vi-rokkioga yordamlashib uning «In-sonni cho‘qintirish» asarining chap tomonidagi farishta rasmini ishlaydi va ustozidan ham mohirligini ko‘rsatadi. Yuqori uyg‘onish davri uslubining asoschisi vati pivkavakili Leonardo Da Vinchi san‘atining ko‘pgina turlarida o‘z kuchini sinab ko‘rdi, matematika, mexanika, fi-zika sohasida ilg‘or fikrlarni ilgari surdi. Leonardo uchun san‘at hayotni bilish vositasi bo‘ldi. Le-




Milandagi Santa-Mariya delle Grazie cherkovi,
1492 y. Boshlangan. Arx. D.Bramante.




Milandagi Santa-Mariya delle Grazie
cherkovi, Umumiy ko'rinishi.

nardo Milanda yashagan kezlari 1482-1499 yillarda u o'zini olim, rassom, injener sifatida nomoyon etish imkoniyatiga erishdi. Me'mor sifatida Leonarda Milanda bir qator surat va proektlar ishladi.

«G'ordagi madonna» (1483-1499), «Sirli oqshom» (1495-1497) kabi mashhur asarlarini yaratdi. Milandagi Santa-Mariya de la Gratsiya monastiri uchun ishlangan mashhur «Sirli oqshom» devoriy surati Leonardo Da Vinchini novator rassom darajasiga ko'taradi. U injildan olingan an'anaviy syujetni erkin va asosan, obrazlarning his-tuyg'u va kechinmalarini ishonarli talqin etish hisobiga ochadi.



1 0 1 2 3 4 5 m



Rimdagi Tempetto, 1502 y. Arx.
D.Bramante. Qirqim va plan.



Leonardo Da Vinchi umrining oxirida ilm, kuzatish va ularni sistemalashtirish ustida ish olib bordi. Uning chiziq, rang, perspektivasi, rangshunoslik haqida yozib qoldirgan fikrlari hanuzgacha o'z qiymatini yo'qotmagan.

Rafael Santi (1483-1520) Uyg'onish davrining yuksak gumanistik ideallari shu davrning titanlaridan biri. Rafael Santi ijodida o'zining tugal talqinini topdi. XVI asr boshlariga kelib, Rim Italiyaning muhim siyosiy va madaniy markaziga aylandi. Uning mavqeini orttirish maqsadida Rim papalari yetuk san'atkorlarni shaharga taklif eta boshladilar. Shu davrda Mikelanjelo, Bramantelar qatori Rafael ham papalar diqqatini o'ziga tortdi va 1508 yili ularning taklifiga binoan, Rimga keldi, shu paytdan Rafael ijodining eng gullagan davri boshlandi va shu yerda u o'zining eng yetuk asarlarini yaratdi. Dastlab unga Vatikandagi papalar shaxsiy xonalarining devorlarini bezash topshirildi. Rafael bu suratlar ustida 1511 yilgacha mehnat qilib, uni muvaffaqiyatli bajardi. Bundan xursand bo'lgan papalar unga yana xonalarni bezash va ularga devoriy suratlar ishlashni davom ettirishni topshirishdi.





Rafael me'mor sifatida ham ijod qildi. U Bramante vafotidan keyin Avliyo Petr soborini qurish ishlariga rahbarlik qildi, villa va cherkovlar uchun karton va chizmalar ishladi, qalamda suratlar chizdi. Rafael 37 yoshida vafot etdi.

Mikelandjelo Buonarotti (1475-1564). Mikelandjelo 1475 yili 6 martda Florensiya yaqinidagi Kapreze shaharchasida dunyoga keldi, 13 yoshida u Florensiyalik Deloniko Trlandino ustaxonasiga o'qishga kirdi. Uni Medichilar Saroy qoshidagi badiiy maktabga o'qishga qabul qilishdi. Bu yerda u o'z bilim va maxoratini oshirdi.


Mikelandjeloning yirik me'morlik asarlaridan biri Florensiyadagi San Lorenzo cherkoviga qo'shimcha qilib qurilgan Medichilar kapellasi, unga



Rimdagi Palasso Kanchelleriya, 1486 y. 1. Fasad. 2. Karniz profili va order fragmenti. 3. Ikkinchi qavat derezasi. 4. Hovli bo'yicha qirqim fragmenti. 5. Kapitell va ichki hovli arkad bazasi, dekorativ detallar. 6. Qirqimi va balkon sofiti. 7. Birinchi qavat plani.



Rimdagi avliyo Pyotr sobori. Planlar: a) Bramante-1505 y. b) Rafael Santi – 1514 y. v) A.Sangallo-1536 y. g) Mikelandjelo-1547 y.



Rimdagi avliyo Pyotr Sobori va Vatikan plani.: 1. Avliyo Pyotr Sobori; 2. trapesiya koʻrinishli maydon; 3. Bernini kolonnadali ovalsimon maydon; 4. Sikstinskaya kapella; 5. Rafael stansalari; 6. Lodjiy hovli; 7. Belvedera xovlisi; 8-Vatikan kutubxonasi; 9. Pini bogʻi; 10. Vatikan bogʻi.

ishlangan qabr toshi va haykallardir. Kapellaning uncha katta boʻlmagan, kvadrat shaklidagi xonasining oq devorlari toʻq kul rang, marmardan ishlangan pilyastrlar bilan ajratilgan. Ijodkorning meʼmorlik isteʼdodi Rimda bir muncha rivojlandi. Bu yerda u Avliyo Petr saborini qurishda, shahar ansambllarini rekonstruksiyasida qatnashdi.


XV asr oʻrtalarida Venetsiya yuqori uygʻonish davriga qadam qoʻydi.

Konstantinopolni turklar tomonidan bosib olinishi Italiya shaharlarida avvalgi savdo-sotiq ishlarining kamayishiga olib keldi.

Lekin oʻz qoʻlida juda koʻp boylik toʻplab olishga ulgurgan Venetsiya aristokratiyasi uzoq vaqt oʻz mustaqilligini saqlab qola olish imkoniyatiga muvassar boʻldi. Sanʼat va madaniyatda yuqori uygʻonish davri prinsplari oʻz ifodasini topdi. Bu yerda yetuk meʼmor, haykaltarosh, rassomlar ijod qilib, Italiya obroʻsini dunyoga tarqatdi. Meʼmor Yakono Sansovino (1486-1570) tomonidan Venetsiyada olib borilgan rekonstruksiya ishlari shahar qiyofasini oʻzgartirib yubordi va suv kunlari bilan uzviy bogʻladi. Nihoyatda jimjimador va nafis Avliyo Mark ku-

tubxonasi esa o'ziga yaqin bo'lgan maydonni yagona ansamblga birlashtirdi. Qo'ng'iroqxona, cherkov binolari shaharga qaytarilmas qiyofa baxsh etdi.

XVI asr o'rtalarida mamlakatning iqtisodiy va siyosiy jihatdan zaiflashishi so'ngi uyg'onish davri me'morligida o'z ifodasini topdi.



Rimdagi avlië Pëtr sobori
(A.Sangallo loyihasi). Maket

M a v z u n i mustahkamlash uchun savollar:

1. Uyg'onish davri arxitekturasining yuksalgan davriga umumiy tafsif bering?
2. XV asr Venetsiya maktabi haqida gapirib bering?
3. Leonardo Da Vinchi ijodini gapirib bering?
4. Bramante ijodini gapirib bering?
5. Rafael Santi, Mikelandjelo Buonarotti ijodlarini gapirib bering?

Mavzuda uchraydigan tayanch so'zlar:

Florensiya, Lorenzo Medichi, Venetsiya maktabi, Yuqori uyg'onish davri, Tompetto ibodatxonasi, Avliyo Petr sobori.

4-Mavzu. Uyg'onish arxitekturasining so'ngi davri

XVI asr o'rtalarida mamlakatning iqtisodiy va siyosiy jihatdan zaiflashishi so'ngi uyg'onish davri me'morligida ham o'z ifodasini topdi. Yirik me'morlik kompozitsiyalari o'rnini davrning feodal restovratsiyasining jonlanishi bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy buyurtmalar kengroq egallaydi. Villa Palasso qurilishi sohasida ko'zga ko'rinarli ishlar qilindi. Bu davrda me'morlikning nazariy masalalariga e'tibor berish, yaratilgan va yaratilayotgan binolarni ilmiy asoslashga intilish boshlandi, bir qator ilmiy asarlar yaratildi. XVI asr o'rtalaridan boshlab, Italiya shaharlarida paydo bo'la boshlagan maxsus o'quv yurtlari, akademiyalarning paydo bo'lishi va ularda me'morlikka oid ta'limlarning o'tilishi muhim voqea bo'ldi. Bularning hammasi keyingi Yevropa me'morligi taraqqiyotida o'zining ta'sirini ko'rsatdi.

Andrea Palladio (1518-1580) ham so'ngi uyg'onish davri yirik me'mori va nazariyotchisidir. Uning 1571 yilda nashr etilgan «Me'morlik to'g'risida 4 risola» kitobida antik me'morlik va order sistemasi haqida to'xtalib ularni o'zgartirib bo'lmaydi deb hisoblaydi. U o'z idealini antiqa me'morligida ko'rdi va shu idealni o'z ijodida qaytarishga harakat qildi. Me'mor bino uchun yaxlit klassik normadagi shakllardan kat'iy simmetriyadan foydalangani holda ulardan dekorativ effekt topadi. U feodal saroylarini shahar uylariga aylantiradi. Uning qurgan binolari shahar ansamblining ajralmas elementiga ko'chalarning ajralmas qismiga aylanadi.


Palladioning Vinchensio yaqinidagi Rotondo villasi hamda Venetsiyadagi San-Djorjo Marjore cherkovi xarakterli bo'lib markazi qubballi kvadrat plandagi bu villa yuqori sokl ustiga qurilgan va 4 tomonida keng ayvonlar mavjud binoning ulug'vor vasipo ko'rinishi tabiat bilan garmonik uyg'unlashgan. Palladio qurgan binolarning ulug'vor ko'rinishi, nisbatlarining go'zalligi, ishlatilgan shakllarning ifodaliligi keyingi Yevropa san'atiga, ayniqsa, Angliya va Rossiya me'morligida klassisizm prinsplarining shakllanishida muhim rol o'ynadi.

German imperiyasi qo'shinlari tomonidan Rimning talanishi. Florensiya respublikasining yiqilishi va mamlakatning yagona davlat bo'lib birlashishi mumkinligiga bo'lgan ishonchining yo'qolishi Italiya iqtisodiy va madaniy inqirozining boshlanishiga sabab bo'ldi. Gumanistik ideallar barbod bo'ldi va so'na boshladi. Uyg'onish davrining dunyoviy, hayotbaxsh san'ati va madaniyati o'rmini mistik g'oyalarni ilgari suruvchi, tashqi jihatdan yaltiroq, lekin hayotdan, uning muammolaridan uzoq bo'lgan san'atning keng yoyilishiga olib keldi.

San'at tarixida manerizm deb nom olgan bu badiiy oqim o'zida uyg'onish davri gumanistik g'oyalarining barbod bo'lganligidan dalolat beribgina qolmay, balki san'atkorlarning badiiy mahorat jihatdan ham orqaga keta boshlaganligini ko'rsatadi.

Manerizm oqimiga xos bo'lgan bu xususiyat dastlab XVI asrning 10-yillari so'ngida Florensiyada 20-30 yillarda Rimda masalan, Julio Romano ijodida sezila boshlagan bo'lsa, 40-50 yillarga kelib, u o'zing klassik ko'rinishiga erishadi. Bu rivojlanishda Italiyaning shimolidagi kichik shaharlar, ayniqsa Parma yetakchilik qildi.

Italiyada boshlangan Uyg'onish harakati XV asrdan boshlab Yevropaning bir qancha yerlarida ham tarqaldi. Bu harakat shu yerdagi mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan mustahkamlanishi, dastlabki kapitalning to'planishi bilan bog'liq holda amalga oshdi. Yevropa mamlakatlarida gumanistik g'oyalarning tarqalishi, milliy birlik, mustaqillik uchun kurash, din



Rimdagi Kapitoliya maydoni, 1546 y. arx. Mikelandjelo. Maydon plani.

1-Avreliya Marka haykali; 2-Senatorlar saroyi; 3-Kapitoliya muzeyi binosi; 4-Konservatorlar saroyi; 5-Santa-Mariya in Ara-Cheli cherkovi.


qurshovidan chiqish bilan birga namoyon bo‘la bordi. Bu qiziqishning amalga oshishiga Italiya gumanistik san‘ati va uning san‘atkorlari katta ta‘sir ko‘rsatdilar.

San‘atkorlar Italiya gumanistlarini o‘z ustozlari deb biladilar. Antik madaniyatni qiziqib o‘rganadilar, uning asl namunalarini ko‘rish ishtiyoqida Italiyaga sayohat qildilar.

Albatta Yevropa mamlakatlaridagi uyg‘onish davri madaniyati va san‘atining boshlanishi hamma yerda bir xil va bir vaqtda rivojlandi deb bo‘lmaydi. Boshqa bir qator mamlakatlarda me‘morlikning gumanistik harakat prinsplari o‘zini to‘liq ifoda etdi.

Ayrim mamlakatlarda Italiya gumanizmining inqiroz davri san‘ati an‘analari ta‘sirida rivojlanishi ham shu mamlakat san‘ati taraqqiyotining gumanistik harakatlariga ta‘siri sezilarli bo‘ldi. U Ispan san‘ati misolida ham namoyon bo‘ldi.

Ayrim mamlakatlarda feodal munosabatlarning sekinlik bilan chekinishi ham bu yerda uygʻonish sanʼatining gurkirab oʻsishiga toʻsqinlik qildi. Fransiyada uygʻonish harakati XV asr oʻrtalarida boshlanib, uning rivoji bevosita, gotika merosining realistik tomonlarini rivojlantirib, asta-sekin Italiya renessansini oʻzlashtirish va tadbqiq etish bilan birga namoyon boʻldi. Fransiyada uygʻonish harakatining kuchayishi bu yerga koʻplab Italyan sanʼatkorlarining kirib kelishi bilan bogʻliqdir.



San-Lorenzo cherkovidagi Kapella Medichi, Florensiya. 1520-1534 y. arx. Mikelandjelo.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. So'ngi uyg'onish davridagi siyosiy-ijtimoiy ahvol?
2. So'ngi uyg'onish davri me'morchiligida nazariy masalalarga e'tibor qanday edi?
3. A. Palladio ijodi haqida nima bilasiz?
4. Manerizm oqimi haqida nima bilasiz?

Mavzuda uchraydigan tayanch so'zlar:

So'ngi uyg'onish davri, nazariy masalalar, manerizm oqimi.

5-Mavzu. Uyg'onish arxitekturasi va siyosiy jihatdan zaiflashishi so'ngi uyg'onish davri me'morligida ham o'z ifodasini topdi. Yirik me'morlik kompozitsiyalari o'rni davrning feodal restavratsiyasining tanlanishi bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy buyurtmalar kengroq egalladi. Villa Palladio qurilishi sohasida ko'zga ko'rinarli ishlar qilindi. Bog'-park me'morligi uslubi shakllandi. Past-balandlikka ega bo'lgan maydonda bog' yaratish Italiya park san'atining muhim shartlaridan hisoblanadi. Bu past balandliklar bir-biri bilan murakkab zinalar orqali bog'lanadi. Tepalik va ularning yon bag'rlari esa turli dekorativ qurilmalar, g'or, suv kaskadlari, fontan, lodjiya haykallari hamda manzarali o'simliklar bilan bezatiladi. Parkning asosiy yo'li darvoza tomonga yo'nalgan. Qolgan yo'l va zinalar ham shu tomonga yo'naltirilgan bo'lib, park kompozitsiyasining tugal bo'lishini ta'minlagan.

XVI asr o'rtalarida mamlakatning iqtisodiy va siyosiy jihatdan zaiflashishi so'ngi uyg'onish davri me'morligida ham o'z ifodasini topdi. Yirik me'morlik kompozitsiyalari o'rni davrning feodal restavratsiyasining tanlanishi bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy buyurtmalar kengroq egalladi. Villa Palladio qurilishi sohasida ko'zga ko'rinarli ishlar qilindi. Bog'-park me'morligi uslubi shakllandi. Past-balandlikka ega bo'lgan maydonda bog' yaratish Italiya park san'atining muhim shartlaridan hisoblanadi. Bu past balandliklar bir-biri bilan murakkab zinalar orqali bog'lanadi. Tepalik va ularning yon bag'rlari esa turli dekorativ qurilmalar, g'or, suv kaskadlari, fontan, lodjiya haykallari hamda manzarali o'simliklar bilan bezatiladi. Parkning asosiy yo'li darvoza tomonga yo'nalgan. Qolgan yo'l va zinalar ham shu tomonga yo'naltirilgan bo'lib, park kompozitsiyasining tugal bo'lishini ta'minlagan.

Bu davrda me'morlikning nazariy masalalariga e'tibor berish, yaratilgan binolarni ilmiy asoslashga intilish boshlandi, bir qator ilmiy asarlar yaratildi.

Jakomo Barossi da Vinola (1507-1573). Bu davrdagi me'morlik binolarida bir tomondan, qadimgi antiqa, ayniqsa, Rim me'morligi ta'sirida sezilsa, ikkinchi tomondan, binolarning bezagiga ortiqcha e'tibor berila boshlaganligi ko'zga tashlandi.

Me'morlikdagi birinchi ko'rinish yirik Rim me'mori va nazariyotchisi Vinola antiqa davr me'morligi nazariyotchisi

Vitruviy asarlarini o'rganib, o'z davri qurilishlarini tartibga solish va uni ilmiy asosda yaratishga harakat qiladi. Uning «Besh me'morlik orderlar qoidasi» (1562) risolasi davrning muhim qo'llanmasi sifatida keng yoyiladi. Viniolani ilk ijodi Balonyada boshlandi. Shu yerda va Rimda


bir qator binolar qurdi. Papa Yuliy III villasi, yozgi uyi (kazino) oval plandagi gumbazli oratoriya (xor aytish uchun mo'ljallangan bino) hamda ko'pgina fontanlar uning ijodiga mansubdir.

Uning eng katta asarlaridan biri Kardenal Farneze uchun qurilgan beshqirrali o'rtasida aylana shaklidagi hovlisi bo'lgan Kaprarola qasridir. Viniolaning cherkov me'morligi sohasida yaratgan binolari ichida Iso cherkovi II Jezu mashhurdir. Bu bino keyingi cherkov qurilishi uchun asos bo'ldi. Bu binoda Vinola asosiy nefga e'tibor berib, uning yon tomonlarida unga chuqur bo'lmagan kapellalar hamda nef va transepti kesishgan tepada gumbaz joylashgan. Rimdagi Del Jezu cherkovini me'mor Jakomo da Viniola boshlagan, uning vafotidan so'ng shogirdi Jakomo dela Porta bu ishni tugatgan.

Jakomo dela Portaning 1598-1603 yillarda qurilgan Aldobranini villasi Fraskati yaqinida barokko uslubidagi villa namunasi hisoblanadi. Tog' qoyalarida joylashgan ushbu villa unga radikal uch yo'l mavjud bo'lgan. Villaning asosiy koropusi oldida ikki dugali zinasimon pandus orqali chiqilgan. Villaga tog' tomondan bog' uygunlashib ketgan. Villaning fasad qismida maydonchada fontan o'rnatilgan. Fontan turli haykalchalar bilan bezatilgan. Bino fasadi haykaltaroshlik asarlari bilan bezatilgan. Villa kirish qismi biroz turtib chiqqan.



Kirish qismida arkasimon eshik joylashgan. Eshikning ikki tomonida 2 qator Korinf orderi mavjud. Kirish joyida tokchalar bo'lib, o'sha tokchalar ichiga haykaltaroshlik asarlari o'rnatilgan. Kirish qismining eng yuqori qismida ham haykaltaroshlik bezaklari binoga o'zgacha ko'rk qo'shib turibdi.

Jorjo Vazari (1511-1574) Monumental – dekorativ rangtasvirdagi manerizmning tipik vakili Vazari hisoblanadi. Uning asarlari o'zining



Papa Yuliya III ning villasi (Rim yaqinida). 1550-1555 y. Arx. Vinola.
Plan.

obraz va detallarining haddan ortiq ko'pligi, kompozitsiyalarining birmuncha bo'sh ishlanganligi bilan xarakterlanadi. Vazari ko'proq nazariyotchi hisoblanadi. U san'at tarixida o'zining «Eng mashhur rassom, haykaltarosh va me'morlar hayoti to'g'risida» degan kitobi bilan shuhrat qozondi. Uning me'moriy ishlaridan Florensiyadagi Sinorii maydoni Ufisiy ko'chasi Vazarining buyuk asari hisoblanadi. J.Vazarining yana bir me'morlik ishlaridan biri Florensiyadagi Palasso Vekchio saroyini qayta tiklash ishi e'tiborga molikdir.



Rim yaqinidagi papa Yuliya III villasi, 1550-1555 y. Arx. Vinola. Paradli hovli. 2, 3. Kapraroleadagi Farneze villasi. 1559 y. qayta qurilgan. Arx. Vinoloy, 1625 yilda qurib bitkazilgan. Dumaloq zina perspektivasi. Villaning umumiy ko'rinishi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Uygʻonish davrida Saroy-bogʻ sanʼatining rivojlanishi haqida nima bilasiz?
2. Vinola ijodi.
3. Vinolaning nazariy asarlari.
4. Jakomo dela Porta ijodi.

Mavzuda uchraydigan tayanich soʻzlar:

Pandus, zinalar, favvoralar, Vinola ijodi, manerizm

6-Mavzu. Barokko arxitekturasi

Bu davrda Yevropa sanʼati avvalgi anʼanalari, eng avvalo uygʻonish davri anʼanalari zaminida kamol topdi. Meʼmorlik binolari koʻcha, maydon va tabiat bilan yanada uygʻunlashdi. Suv kaskadlari va favvoralariga qiziqish ortdi.

XVII asr «barokko asri» deb ham yuritiladi. Bu esa bejiz emas. Chunki davrning gʻoyaviy estetik qarashlari ayni shu uslubda koʻproq oʻz ifodasini topdi. Arxitektura, sanʼat tarixida XVII asr meʼmorchiligining oʻziga xos jihatlari taʼriflash uchun qoʻllanilgan, barokko uslubining belgilari, dastlab Italiyada paydo boʻlgan. Vinola, Palladio meʼmorlik asarlarida shu tamoyillari namoyon boʻldi. Ispaniya va Portugaliyada barokko nihoyatda hashamdor, jimjimador edi. Buning sababi mahalliy naqqoshlik sanʼati ravnaq topganligidadir. Germaniyada esa barokko gotika taʼsirida rivojlanganligi seziladi. Flandriyada «flamand barokkosi» shakllangan boʻlsa, Fransiyada barokko klassisizm tamoyillari taʼsirida namoyon boʻldi. Barokko Angliya, Skandinaviya mamlakatlari, keyinroq esa Rossiyaga ham kirib keldi.


Barokkoga xos fazilatlar Rim meʼmorligida oʻzining klassik koʻrinishiga erishdi. Barokko intererlarida dekorativ rang tasvir, haykal va kolonnalar muhim oʻrinni egallaydi. Ular xonalarga badiiy mazmun kiritadi. Barokko sanʼatida fazoviy kenglik masalasi ham oʻziga xos talqin etiladi. U kompozitsiyada yagona ansambl tashkil etuvchi omil vazifasini bajaradi.

XVI asr oʻrtalarida Fransiya va Ispaniyaning Italiyani bosib olish uchun olib borgan harbiy harakatlari Ispaniya gʻalabasi bilan tugadi. Italiyaning koʻpgina shaharlari uchun tasarrufiga oʻtdi. XVII asrda Italiya iqtisodiy va siyosiy jihatdan tarqoq mamlakat edi. Biroq undagi hukmron tabaqa vakillari chet el bosqinchilari homiyligida dabdabali hayot kechirish, serhasham, serjilo binolar, Saroy va qasrlar qurish, tantanali karnavallar oʻtkazish orqali jamiyatdagi kamchiliklarni yashirishga intildilar. Ular

cherkov binolari, saroylar, shahardan tashqarida serjilo va serhasham qasrlar qurdilar. Bu qurilishlar ayniqsa katolizm markazi bo'lgan Vatikanda qizg'in bo'ldi. Papa davlati xasham uchun mablag'ni ayamadi.

Siyosiy jihatdan tarqoq va qaram iqtisodiy jihatdan qashshoq Italiya XVII-XVIII asr mobaynida Yevropadagi muhim markaz sifatida dong chiqardi. Bu yerda shakllangan va rivojlangan ko'plab badiiy uslubiy yo'nalishlar Italiyadan tashqarida ham shuhrat qozondi. Rim esa Yevropada badiiy hayotning muhim markazi baynalminal akademiya rolini o'ynadi. Antik va renessans durdonalarini saqlab kelayotgan Rimda ko'hna va yangi san'at aralashib mahalliy va chet el san'ati an'analari ta'sirida o'ziga xos yangi san'at yuzaga keldi. Me'morlikda hajm jihatidan katta shakl jihatdan serjilo va ko'rkam binolar yaratildi. Intererlar bezakka boyligi, san'at sintezining nozik ko'rinishi bilan o'ziga xoslik kasb etdi, qurilgan binolar ko'p hollarda gumbazli bo'ldi. Me'morlikda asosan barokko uslubi yetakchi o'rinni egalladi. Italiya me'morlari shahar ko'cha va maydonlarini qayta rejalashtirish asosida ularga o'rta asr shahar ko'rinishiga xos tugallik va ko'rkamlik kiritdilar. Yangi qurilgan favvora, yodgorlik va zinalar shahar maydonlari badiiyligi va emosionalligini oshiradi. Shahar tashqarisidagi qurilmalarda tevarak-atrof rel'efi hisobga olinib, majmualar yaratildi. Tepalik va soyliklarga haykaltaroshlik hamda amaliy san'at asrlari o'rnatilib, yagona me'mor majmuasi vujudga keltirildi. Barokko me'morligida bino old tomoniga alohida e'tibor beriladi va uning dekorativ jihatdan bo'lishi hisobga olinadi. Rimdagi Del Jezu cherkovi barokko namunasidir. Uni me'mor Jakomo da Viniola (1507-73) boshlagan edi. Uning vafotidan keyin shogirdi Jakomo dela Porta bu ishni tugatgan, qush plyastr, valyuta va favvora va boshqa qator dekorativ bezaklar binoning old tomoniga o'ziga xoslik baxsh etgan.

San-Karlo ibodatxonasi ham barokko uslubining o'ziga xos jihatlarini to'liq namoyon etadi. Bu binoda ham yuqoridagidek bezaklar mavjud. Yarim aylana, oval, yarim ustun shaklidagi hajmlar bino yuzasidagi nur-soya o'yinini kuchaytirib, uning yanada ko'rkam bo'lishini ta'minlagan. Bu cherkov binosi muallifi, barokko uslubining yirik namoyondasi me'mor Franchesko Borrominidir. (1599-1667). U o'z



Rim, To'rt favvoradagi San-Karlo cherkovi, 1638 y. boshlangan, fasad 1667 y. arx. Barromini. Plan.

ijodida dekorativ bezaklardan keng foydalanadi. Ba'zida me'yoridan ham oshirib yuboradi.

Italiyada barokko arxitekturasida XVII asrga to'g'ri keladi. Nazariyotchilarning shaharsozlik sohasidagi ilmiy asarlari Rimdagi ansambllar Dela Ponolo maydoni, Avliyo Petr jomesi oldidagi maydonning ta'miri, binolarda me'moriy bezaklarning mo'lligi, bog'larda, maydonlarda va favvoralar atrofi

haykaltaroshlik ishlari bilan ishlanishi barokko arxitekturasining san'at darajasiga chiqishi bilan ajralib turadi.

Barokko stilida ijod etgan arxitektorlar:


K.Fontana, Riynaldi, Bernini, Borromini, Petroda Kartonalar o'z ijodlari bilan barokko uslubining boshqa davlatlar arxitekturasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Ayniqsa shaharsozlik borasida T.Kaponellaning «Quyosh shahri» loyiha asarlarining bir qancha me'moriy yechimlari va ko'plab ishootlar Yevropaning boshqa mamlakatlariga kirib bordi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Barokko uslubining ijtimoiy, siysiy va trixiy sharoitlari haqida gapirib bering.
2. XVIII asr Italiya barokko arxitekturasida.
3. Rimdagi mashhur shahar maydonlari. Del Ponola maydoni. Avliyo Petr jomesi oldidagi maydon haqida gapirib bering.
4. Barokko davri bog'chilik san'ati haqida gapirib bering.

Mavzuda uchraydigan tayanch so'zlar:

Barokko arxitekturasida, Barokko uslubi, xayolparast Kampanellaning «Quyosh shahri», shahar maydonlari.



Rimdagi del Popolo maydoni, 1662 y. planirovkasi. Arx. Raynaldi i Karlo Fontana. Bosh plan.

7-Mavzu. Barokko uslubning boshlang'ich davri

XVI asr oxirlarida Italiyaning iqtisodiy hayoti kulfatga uchradi. Savdo-sotiqning tushib ketishi natijasida shahar qurilishlari susaya bordi. Asosiy qurilmalarga buyurtmachi, cherkov, knyazlar va monastirlar bo'lib qoldi.

Bu o'zgarishlar Avliyo Petr soborini qurilishiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. 1607 yilda Papa Pavel V, Karlo Moderna va Domeniko Fontanalar Avliyo Petr sobori nefini uzaytirish bo'yicha ishlarni boshlashdi. Nefni uzaytirish grek xojini lotin xojiga ko'chirishdir. Qurilma o'zining masshtabligini yo'qotdi, uni aniqlanishiga xizmat qilgan Bramanteni zinasimon kompozitsiyasi va Mikelandjeloda katta va kichik hajmlarning kontrasti mutanosibligi.

Moderna soborni yangi fasadiga ishonarli vestibyl qismini loyihaladi va qurdi. Bu ishlarning hammasi 1914 yili tugatildi.



Karlo Moderno (1556-1629) hamda (1596-1603) yillarda Rimdagi Santa-Susanna cherkovini barpo etdi.

Cherkov kompozitsiyasini yaratishda II Djezu cherkovi fasadi sistemasidan foydalandi. Uni proporsiyalarini, detallarini tubdan o'zgartirdi. Vinolaning dramatik og'ir holatdagi formalari, xuddi shu holatlarni o'zida aks ettirgan Mikeladjelo, u tinch osoyishtalikning bajarilish mutanosibligi garmoniyasini almashtirdi. Ushbu me'moriy qurilma ikki yo'nalishning erkin kurashini, ya'ni klassik me'morchilik barokkoning eng gullagan davrida ham antirealistik tendensiyalar qarshiligini ko'rsatgan.

XVII asr Rimda birinchi bor uch nurli ko'cha sistemasi vujudga keldi. Bu ko'chalar Del Popolo maydonidan tarqalar edi. Rimga kirib keluvchi Flaminiya ko'chasi shu uch Ripetta Karso (Vio Lata) va del Babuino ko'chalariga bo'linadi. Bu uch ko'chani kesishuv nuqtasi D.Fontana tomonidan o'rnatilgan obelis mavjud.

Me'morlar Ushbu markaziy o'q yo'nalishi bo'ylab 2 ta gumbazli cherkov qurdilar. Bu bilan uch o'qli ko'cha sistemasining ahamiyati belgilandi. Maydon esa shaharga orientatsiya qilindi. Uchta ko'cha maydondan boshlanib, Porta del Popolo shahar darvozasigacha davom etgan. Rimga keluvchilarni asosiy shoh ko'chalarga taqsimlab, shimoliy uchta asosiy yo'nalish shaharning turli hududlariga olib boradi.

Shaharsozlik ishlarini keng ko'lamda rivojlantirgan bilan, mablag' yetishmaganidan bularning hammasini amalga oshirish ilojisi yo'q edi. Jamiyatdagi moddiy boyliklarni yetarli emasligidan, chegaralanganligidan shaharni qayta loyihalash vazifasi real hal qilinmadi.



Rim. 1. To'rt favvoradagi San-Karlo cherkovi, 1638 y. boshlangan, fasad 1667 y. tugatilgan. Arx. F.Borromini. Umumiy ko'rinish. 2, 3. Il Djezu cherkovi, 1568 y. boshlangan. Arx. Vinoli, 1575-1584 y. fasadi. Arx. Djakomo della Porta. Cherkovning umumiy ko'rinishi. Interer. 4. Santa-Susanna cherkovi, 1596-1603 y. arx. Karlo Maderna. Fasad.

Barokko davrida katta ahamiyat berib qurilgan inshootlarga saroylar, villalar kiradi. Bu inshootlarda badiiy bezakka katta ahamiyat berilgan.

O'sha davrdagi Rim saroylari ulug'vor, tantanavor ko'rinish kasb etgan.

Barokko davri me'morlarining g'oyalari yaratgan inshootlari, buyurtmachilarning boyligini, ulug'ligini, tantanavorligini aks ettirishga bag'ishlangan. Lekin saroy kompozitsiyalari ancha bosiq, vazmin xarakterga ega. Cherkov kompozitsiyalaridan shunisi bilan farqlanadi.

Barberining kolossosini 1624 yili Moderna qurilishini boshlagan. Palasso dastlabki plani Modernaga tegishli. 1629 yilgacha qurilishni Borromini davom ettirdi, keyinchalik uni Bernini tugatdi.

Katta fontan ko'chasida joylashgan saroyda Italiya uyg'onish davri saroylari xarakteri yo'q. Ichki hovli o'rniga ikki tomondagi yon ko'rinish oralig'idagi ochiq hovli kurdoner joylashgan.

Saroy tashqi ko'rinishi formalarining sodda vazminligiga qaramay, Saroy intererlari barokko murakkabligi talablarida qurilgan. Ayniqsa birinchi qavati.

Djovanoni Fontana va Karlo Moderna 1585-1590 yillarda bir necha fontandlarni loyihalashtirdilar. Navona maydoniga fontan (Bernini) va bir necha Rim maydonlari va hovlilarida va bir qancha saroylarda qurdilar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. K.Moderna ijodi haqida nima bilasiz?
2. Avliyo Petr jomesi ta'mirlash ishlari haqida gapiring?
3. Dela Popola maydonini yaratilishi.
4. Rim saroylari haqida gapiring?

Mavzuda uchraydigan tayanch so'zlar:

K.Modern, K.Fonitana, maydonlar, saroylar, ko'chalar, shaharsozlik.

8-Mavzu. Yuksalgan barokko arxitekturasi

Jevanoni Lorenzo Bernini (1598-1680). Barokko san'atining yirik vakili me'mor va haykaltarosh Bernini Neapol shahrida tug'ilgan. Shu yerda otasidan san'at sirlarini o'rgandi. 9 yoshida marmardan odam boshi haykalini ishlab, ko'pchilikni hayratlantirdi. 25 yoshda esa Katolik Rimning mahobatli binosi – Avliyo Petr ibodatxonasining bosh me'mori darajasiga ko'tarildi. U ko'plab me'morlik va haykaltaroshlik asarlarini yaratdi. Me'morlik loyihalari, ibodatxona va saroylar, qabrtosh yodgorliklari ishladi. Rimdagi Avliyo Petr soborining oldidagi katta

maydon va uni o‘rab turgan ustunlar qatori Bernining shoh asaridir. Me‘mor bu asari bilan Avliyo Petr ibodatxonasi qurilishiga yakun yasadi va yagona yirik mahobatli me‘morlik majmuasini yaratdi. Bunda Mikelandjeloning ham ishtiroki bor edi. Bernini ana shu mashhur ibodatxona old tomonida favvora va obeliskli maydon yaratib, uni ustunlar qatori bilan ulug‘vorlashtirdi. Natijada ibodatxona ko‘rinishidagi tantanavorlik ortdi. Bu maydondan ibodatxona yaxlit va ulug‘vor bo‘lib ko‘rinadi. Ibodatxonaning ikki tomonidan tomoshabinga qarab kelayotgan ustunlar qatori keluvchilarni «go‘yo quchoq ochib» kutib olayotgandek tuyuladi.

Maydon, badiiy, plastik-vizual tashkil etilishi, ayniqsa e‘tiborga molikdir. Maydon trapetsiyavaellipssimon maydonlardan tashkil topgan. Bu ikki maydoncha idrok etilganda gorizontal tekislikdagi trapetsiya va ellips go‘yo to‘rtburchakvaaylanabo‘lib ko‘rinadi. Bundan maydon hajmi kattalashgandek tuyuladi. Bernini bu uslubni ijodida Vatikandagi qirol saroyi asosiy zinasida ham foydalangan. Uning orqa planidagi ustunlar va zina kengligi biroz qisqargan holda ishlanib, uning fazoviy uzunligini oshirishga, zinani o‘z o‘lchamiga nisbatan yanada kattaroq bo‘lib ko‘rinadigan bo‘lishiga erishgan. Bernini fuqaro me‘morligida ham samarali mehnat qildi. Uning Rimdagi Sant-Andrea del Kvirinale, Barberini palassosi mashhurdir. Bernining dekoratorlik san‘ati. Avliyo Petr ibodatxonasining ichki intererlarida o‘z ifodasini topgan. Bernini o‘z ijodida barokko yo‘nalishining o‘ziga xos hamma xususiyatlarni namoyon etgan.

San Karlo ibodatxonasi ham barokko uslubining o‘ziga xos jihatlarini to‘liq namoyon etadi. Bu binoda ham yuqoridagidek bezaklar mavjud. Yarim aylana, oval, yarim ustun shaklidagi hajmlar bino yuzasidagi nur-soya o‘yinini kuchaytirib, uning yanada ko‘rkam bo‘lishini ta‘minlagan. Bu cherkov binosi muallifi, barokko uslubining yirik namoyondasi, me‘mor Franchesko Borrominidir (1599-1667). U o‘z ijodida dekorativ bezaklardan keng foydalanadi. Ba‘zida hatto me‘yoridan ham oshirib yuboradi. Bu esa u yaratgan asarlardagi yaxlitlikka salbiy ta‘sir qiladi. Me‘mor intererlarining badiiy yechimida ham shunday dekorativ bezak va haykallardan keng foydalanadi.

Borromini chorrahadagi to‘rt favaora ansamblini yaratdi. Ushbu ansambl uning shaharsozlik borasidagi shoh asari hisoblanadi.


Petro da Kartona (1596-1669) o‘z davrining mashhur rassom va me‘morlaridan biridir. Uning ijodida Italiyada barokkoga xos ko‘rinishlar namoyon bo‘ladi. Uning Rimdagi Borberini palassosi shi piga ishlangan rasmlari nihoyatda ta‘sirchan va serbezakdir. Me‘mor o‘z asarlarida fazoviy kenglik, nur-soyaning kuchidan unumli foydalanadi.

Frasatdagi Falkoner villasida Borrominining arxitektor-dekoratorlik mahoratini to'liq namoyon qiladi.


Borrominining yana bir mashhur yodgorliklaridan Rimdagi Santo-Ivo universal cherkovi binosidir. U 1642-1660 yillardan Papa Urbana VIII Barberining sharafiga qurilgan.

XVIII asrga kelib, Italiya tashqi hurujlar ta'sirida zaiflashdi. Iqtisodiy jihatdan qashshoqlashib, uning ko'pgina shaharlari chet el bosqinchilari qo'liga o'tdi. Faqat Papa hududi hamda Venetsiya respublikasi o'z siyosiy mustaqilligini saqlab qoia oldi. Venetsiyadagi badiiy hayot esa barokko uslubida ishlangan hashamatli me'morlik bino va majmualarida tantanavor serjilo xristian baziliklarida, ajoyib favvoralarida his hayajonga to'la devoriy va dastgoh suratlarida o'z ifodasini topdi. Me'morlar uyg'onish davri hamda barokko ustalarining ilg'or an'analari davom ettirib, Italiya me'morchiligini shuhratini oshirdilar.

XV asr ikkinchi yarmida Venesiyada ham uyg'onish davri prinsplari rivojlangan boshladi. Uning yirik vakillari Jovanni Bellini (1456-1526) ijodi esa Italiya ilk uyg'onish davrining o'tish chegarasini belgiladi. Vizantiya, G'arbiy Yevropa davlatlari bilan yaqin aloqada bo'lgan boy savdogarlar respublikasi Venetsiya san'atkorlari Sharqning boy, serjilo va erkin san'ati va gotika an'analari o'zlashtirgan holda o'ziga xos jozibador san'at maktabini yaratishga muvassar bo'ldilar. Venetsiyaning yuqori uyg'onish davri san'ati o'z prinsplarini shakllantirdi. Mamlakatda ilk uyg'onish davri me'morchiligi antik me'morchilik an'analari yangi davr talablari asosida qayta tiklandi. Barokko davrining asosiy venetsiyalik



Rimdagi Sant-Ivo cherkovi, 1642-1660 y. arx. Borromini. Umumiy ko'rinish va plan.



Venetsiyadagi Santa-Mariya della Salyutev cherkovi. 1631-1682 y. Arx. B.Longena.
Umumiy vid. Rim. Ispaniyadagi maydon. Umumiy ko'rinish.

me'mori Baldassar Lonchena (1598-1682) hisoblanadi. Katta kanalda qurilgan saroylar ichida ahamiyatlisi Redzoniko palassosi va Pezaro palassosi diqqatiga sazovordir. Ularning monumentalligi, formalarining plastikasi, soya, yorug' kontrastlari to'g'ri hal qilingan. Lonchenaning eng mashhur yodgorliklaridan Santa-Mariya dela Salyuta cherkovidir. (1631-1682) yillarda qurilgan. Bu markaziy sakkiz qirrali qurilma, tepasi aylana shaklidagi gumbaz bilan berkitilgan. Cherkovga kirish qismi triumfal arka ko'rinishiga ega. Asosiy hajmga kvadrat shakli yarim aylana aksida cherkov xori birlashgan, ikkinchi kichik gumbaz bilan berkitilgan. Uning hajmini ikkita minora bezab turadi. Cherkovning ajoyib kompozitsiyasi o'zining formasi, silueti, rango-rangligi bilan ajralib turadi. Italiya uyg'onish davri me'morligi o'z ta'sirini boshqa Yevropa mamlakatlariga o'tkazadi. Italiya uyg'onish davri me'morchiligi o'z ta'sirini Fransiya, Angliya, Ispaniya, Germaniya va boshqa ko'plab davlatlar o'tkazdi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

- 1) Bernini ijodi haqida nima bilasiz?
- 2) Borromini yaratgan inshootlarni aytib o'ting?
- 3) P.Kartona haqida gapirib bering?
- 4) Longena ijodi haqida gapirib bering?
- 5) Borokko uslubining boshqa davlatlar arxitekturasiga ta'siri haqida gapirib?

Mavzuda uchraydigan tayanch so'zlar.

Bernini, Borromini, Longena, Kartona, Venetsiya, yirik markazlar.

9-Mavzu. Fransiya klassisizmi

Ilm-fan taraqqiyoti, yangi qit'alar, dengiz yo'llari xalqlarning o'zaro aloqalari jadallashuviga imkoniyat yaratdi. Jahon xalqlarining ijtimoiy hayoti faollashdi. Yevropa mamlakatlarida taraqqiyot bir muncha tezlashdi.


Shuningdek, ayrim mamlakatlarda feodal munosabatlarning sekinlik bilan chekinishi ham bu yerlarda Uyg'onish san'atining gurkirab o'sishiga to'sqinlik qildi, jumladan, Fransiyada Uyg'onish harakati XV asr o'rtalaridan boshlanib, uning rivoji bevosita, gotika merosining realistik tomonlarini rivojlantirish bilan birga, asta-sekin Italiya renessansini o'zlashtirish va tadbiq etish bilan birga namoyon bo'ldi. Fransiyada Uyg'onish harakatining kuchayishi bu yerda ko'plab italyan san'atkorlarining kirib kelishi bilan bog'liqdir.

XV asrda Fransiyada millat shakllandi. Shu yillarda Renessans

san'atining asoslari paydo bo'ldi, ya'ni ilk Renessans davri boshlandi. XV asr o'rtalarida Fransiya yerlari yagona davlat bo'lib birlashdi. Bu yagona davlat milliy san'at, arxitekturaning shakllanishida muhim o'rinni egalladi. Fan va madaniyat gurkirab rivojlandi. Fransiyaning Italiya bilan yaqin aloqada bo'lishi bu yerda Renessansning kirib kelishini tezlashtirdi. Bu hol me'morlikda Renessans arkalar, yuzaning yaxlit bo'lishiga e'tibor berishda ko'rindi. Lekin gotika san'atining ta'siri hamon sezilarli edi.

XVI asrga kelib, Fransiya G'arbiy Yevropadagi katta davlatlardan biriga aylandi. Shaharlarning loyihasi, saroy va shahar ansambllarini yaratish masalasi me'morlikning asosiy vazifasi bo'lib qoldi. Fransuz qiroli Fransisk I davrida Fransiyada qurilish avj olib bordi. U me'morlarga Renessans uslubida binolar qurishni topshirib, ko'chalarning to'g'ri, keng va chiroyli bo'lishini talab qildi. Parijda qurilish jonlanib ketdi, me'morlikda renessans bezagi keng qo'llanildi.

XVII asrga xos yana bir yirik badiiy uslub - klassisizm ham Fransiyada paydo bo'ldi. Klassisizm vakillari aql-idrokni san'atga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi yagona mezon, deb hisoblashgan. Aql-idrokni his-hayajonga qarshi qo'yishgan. Ularning fikriga, aql kuchi bilan yaratilgan asarlarga haqiqiy san'at asari hisoblanadi. Klassisizm uslubi tarafdorlari ham Uyg'onish davri san'atidan ilhomlandilar. Ular ham ideal obrazga murojaat qildilar. Shakllarning aniq va elastik tugal, kompozitsiyalarining jiddiy muvozanatli va mantiqiy bo'lishiga e'tibor berdilar. Klassisizm san'atida ham umumlashma asar yaratish asosiy muammo hisoblangan.



(Parij yaqinida) shahar tashqarisidagi Shato de Mezon saroyi. 1642-1650 y. arx. Fr.Mansar. ikkinchi qavat plani: 1-katta zina; 2-qiroh honasi; 3-qiroh xonalari.

Lekin barokko vakillari yirik umumlashma mavzudagi asarlarni dinamik kompozitsiyada ifoda etsalar, klassistlarning asarlari bir muncha vazmin, ritm va plastik musiqiylikka intilish asosida yaratildi.


Klassisizm uslubining o'ziga xos jihatlari dastlab XVII asrning ikkinchi yarmida Italiyada me'morlar Vinola va Palladio ijodida sezila boshlandi. Klassisizmga xos xususiyatlar me'morlikdagi shakllarning geometrik aniqligi va ritmi, mantiqiy rejalashtirishi va keng ko'lamda antik me'morlik shakllaridan foydalanishda namoyon bo'ladi.

Klassizm uslubida ishlangan me'morlik kompozitsiyalarida order tizimi muhim rol o'ynaydi. Me'mor ko'pincha order va ularning nisbati hamda shakllarini antik davrdagiga xos ifodalashga harakat qiladi. Bunda interver ham xarakterli. Unda ham yaxlitlik va ulug'vor tantanavorlik mavjud bo'lishi kerak. Ustunlar qatori va devor yuzasi tekisliklari ritmi bu yaxlitlik va tantanavorlik ko'rinishiga halaqit bermasligi lozim. Klassisizm shahar qurilishi san'atida ko'proq Renessans va barokko uslubi tamoyillarni ijodiy o'zlashtirgan tarzda ko'rindi va rivojlandi. Tabiiy ko'rinishlari me'morlik kompozitsiyalarida, majmualarida hisobga olinib, klassisizmning talablari asosida o'zlashtirildi. Klassisizm o'z taraqqiyotida boshqa uslublardan, masalan, barokko uslubidan ham ta'sirlandi, uning ayrim tomonlarini o'zida uyg'unlashtirdi. XVIII asrda yunon va Rim tarixi bo'yicha qilingan kashfiyotlar, Pampey, Gerkulanum kabi qadimiy shaharlarning ochilishi, nemis olim va san'atshunoslari Gete va Vinkelmanlarning ilmiy-nazariy faoliyatlari klassisizm uslubi rivojlanishiga turtki bo'ldi. Antik san'atga qiziqish yanada ortdi. XVIII asr ohiri XIX asrda esa bu uslub jahon san'atida yetakchi badiiy uslublardan biriga aylandi. Me'morlikda o'zgarishlar sezilarli bo'ldi.

Cherkov qurilishi kamaydi. Aksincha, uy-joy me'morligi jonlandi. Shaharni rejalashtirish masalasi me'morlikdagi muhim masalalardan biriga aylandi. Turar joylarning yangi tiplari vujudga keldi. Shahardama'muriy binolarning majmualari paydo bo'ldi. San'atda arxitektura sintezi birmuncha susaydi. XVIII asrga kelib, milliy maktablar ham ko'paya boshlandi. Ular orasida Fransiya badiiy maktabi Yevropa san'atida yetakchi o'ringa chiqdi.

XVII asr shahar va shahardan tashqarida qurilgan me'morlik majmualari, qirol va zodogonlarning qarorgoh va saroylari, burjua boylarning uylari klassisizmning uslubining rivojlanishida muhim omil bo'ldi. Mashhur Luvr saroyining Sharqiy tomoni ko'rinishini me'mor K. Perro yaratgan. Versal saroy-bog' majmuasi, ko'plab tantanavor arklar, ko'priklar hamda jamoat binolari qurildi.

XVI asrlarda Luvr dengiz bo'yi o'lkalarida qasrlar qurila boshlandi, bulardan eng katta va mashhur bo'lgan Shambor qiroli qasridir. Bino 1519-1522 yillarda Frangesco I ga atab ovchilar qarorgohi etib qurilgan.



Vo le Vikontdagi 1656-1661 y. Arx. L.Levo. Fasad.



Binoning to'rt tarafida aylana shakldagi minora, bino o'rta qismida katta minora joylashtirilib, me'moriy kompozitsiyasi feodallarning tipik qasri sifatida qurilgan. Minoralar bilan birlashuvchi devorlar muhofazalinishi xarakterini bermaydi. Unga baland bo'lmagan bino korpusida yashash uchun mo'ljallangan xonalar mavjud. Binoning asosiy o'rta qismi tarzidagi pilyastr va ravn qurilmasi Renessans arxitekturasi ko'rinishini beradi, tom qismidagi ko'pgina vertikal holatlar, tutun trubasi va boshqalar binoning gotik udumlariga xos ekanligidan dalolat beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:




- 1) XV asr Fransiyadagi siyosiy-madaniy o'zgarishlar haqida nima bilasiz?
- 2) Fransiyani yirik milliy davlatga aylanishi haqida gapirib bering?
- 3) Italiya Uyg'onish arxitekturasi Fransiyaga kirib kelishi haqida gapirib bering?
- 4) Fransiyada klassisizm uslubini vujudga kelishi haqida gapirib bering?
- 5) Shambor qiroli qasri haqida gapirib bering ?

Mavzuda uchraydigan tayanch so'zlar:

Klassisizm, milliy davlat, Italiya renessansining Fransiyaga ta'siri, qiroli qasrlari, saroylar.



1. Ekuan qasri, 1538-1551, 1559 yillar. Arx. J.Byullan. Portik. 2. Ane qasri, 1547-1552 y. atrofi. Arx. F.Delorm. Darvoza. 3. Parijdagi Luvrskiy qirol saroyi, 1546 y. boshlangan. Arx. P.Lesko, skulptor J.Gujon.



1. Shambor qasri, 1519-1559 y. shimol tarafdin ko'rinishi. 2. Bluadagi qasr ansambli. Fransiska I qanoti, XVI asrning birinchi choragi. Me'morlar J.Surdo va b. 3. Aze-le-Rido qasri, 1518-1524 y. Shimoliy-sharqdan ko'rinishi. 4. Fonteneblo saroyi. Fransiska I galereyasi, 1534-1541 y.

10-Mavzu. Fransiya Renessansining rivojlangan davri

XV asrda Fransiyada millat shakllandi. Shu yillarda Renessans san'atining asoslari paydo bo'ldi, ya'ni ilk Renessans davri boshlandi. XV asr o'rtalarida Fransiya yerlari yagona davlat bo'lib birlashdi. Bu yagona davlat milliy san'at va madaniyatining shakllanishida muhim o'rinni egalladi. Fransiya me'morchiligida realistik tendensiyaning kuchayib borayotganini ko'rish mumkin. Bu realistik xususiyat Fransiyaning Janubiy provinsiyalarida, ayniqsa Avinon maktabi ustalari ijodida yaqqol seziladi.

XVI asrga kelib, Fransiya G'arbiy Yevropadagi katta davlatlardan birga aylandi. Me'morlik yangi davr ruhini yanada yorqin ifodalay boshladi. Shaharlarning planirovkasi, saroy va shahar ansambllarini yaratish masalasi me'morlikning asosiy vazifasi bo'lib qoldi. Fransuz qiroli Fransisk I davrida Fransiyada qurilish avj olib ketdi. U me'morlarga Renessans uslubida binolar qurishni topshirib, ko'chalarning to'g'ri, keng va chiroyli bo'lishini talab qiladi. Parijda qurilish jonlanib ketdi, me'morlikda renessans bezagi keng qo'llanildi.




Shambor va Blua qo'rg'onlari XVI asr me'morligida Renessans bezagining qo'llanilishini ifodalovchi yodgorliklardir. Bu o'zining hayotbaxshiligi va tantanavoriligi, shodiyona kayfiyat baxsh etish bilan o'rta asrning jiddiy va salobatli binolaridan ajralib turadi.

XVI asrning 40 yillaridan boshlab, Fransiyada juda ko'p iste'dodli me'morlar ijod qila boshlaydi.

Shunday me'morlardan biri Per Lesko (tax. 1510-1578) bo'lib, ko'p binolarni haykaltarosh Gujon bilan hamkorlikda bezagan. Shunday ishlardan eng mashhuri Luvrning tashqi bezagi hisoblanadi. Bu bino Fransuz Renessansi me'morligining gullagan davri namunasidir.

Fransuz Renessansining yirik vakili Jon Gujon (tax. 1570-1566-68) ijodida Fransuz plastikasining hayotbaxsh xislatlari o'zini to'liq namoyon qildi. U qabrtosh hamda me'morlik ansambllarini bezashda ishtirok etgan.

Gujonning mashhur asarlaridan biri Parijdagi Nimf fantani uchun ishlangan rel'efdir. «Begunohlar favvorasi» deb nomlangan. Nimf favvorasi 1549 yili 16 iyunda qirolning shahriga kirib kelishi munosabati bilan qurilgan. Dekorativ xarakterdagi bu qurilmaning me'mor Lesko bilan hamkorlikda bajarilgan asosiy releflari pilyastrlar orasida qoldirilgan tor yuzalarga ishlangan. Bu yerda tabiat ko'chlarining ramzi bo'lgan go'zal ma'budalar tasvirlangan. Gujon asarlariga xos bo'lgan voqelikni shoirona talqin etish, inson go'zalligini kuylash uning Diona haykalida ham o'z ifodasini topgan. Gujonning katta ishlari orasida Luvr hamda Parijdagi ratusha binosiga




Parij yaqinidagi Shato de Mezon shahar tashqarisidagi saroy, 1642-1650 y. arx.
F.Mansar. 1. Xiyobon tarafdin ko'rinishi. 2. 3. Interer.

ishlangan releflar mashhurdir. Keyingi releflarda dehqonlarning hayotiga bag'ishlangan realistik tasvirlar ham keng uchraydi.

Fransuz arxitekturasida XV asr, XVI asr me'morchilikda yangi davr Fransuz Renessansi davri boshlandi. Fransiyada Renessans davri XV, XVI asrning boshlanishi hamda XVII asrni o'z ichiga oladi. Fransiya madaniy-maishiy hayotidagi keskin o'zgarishlar, boy dvoryan uylarining planirovkasi, me'morlik formalari tubdan o'zgardi.

Istehkom-qal'a-ko'shk saroyga aylanadi. O'sha davr arxitekturasini aks ettiruvchi qal'alar Aze-le-Rado, Valanse, Shevonse, Shantili va Fontan-Anri hamda Bajansidagi shahar Raiushasi inshootlarga kiradi.

XVI asr o'rtalariga kelib, Fransiyada bir guruh me'morlar yetishib chiqdi. Ularning ijodi Fransuz me'morligining yangi bosqichini belgilaydi. Filiber Delorli, Jan Byullan, Pber Lesko Jak Andrue Dyusero kabi me'morlar shunchaki mahalliy an'analarda ishlovchi emas, balki Italiyada bo'lgan, yoki Rim klassik me'morchiligi bilan yaqindan tanish bo'lgan, Italiya uyg'onish davri ruhida ijod etuvchi me'morlar sirasiga kiradi. Delorma arxitektura haqidagi nazariy asar muallifi hisoblanadi. Byullan orderlar haqidagi tadqiqotlarni nashr etgan. Dyusero-bir qancha arxitektura, gravyura, amaliy san'at haqidagi fikrlarini chop etgan, ya'ni Fransuz me'morlari nafaqat praktik me'morlar, balki nazariyotchi me'morlar hisoblanadilar. U butun ijodi davomida o'zlarining kuzatishlarini, tadqiqotlarini o'z ilmiy ishlarida, kitoblarida yozib qoldirganlar.



Vo le Vikont shahardan tashqaridagi saroy. Plan.

Filpber Delorm (1510-1570). U me'mor sifatida juda ko'p inshootlarni loyihalab qurdi. Ular ichida eng asosiysi Parijdagi Tyuilri shoh saroyi, 1870 yili saroy yonib ketgan, Ane ko'shkini yarmisi saqlanib qolgan.

Delorm loyihasi bo'yicha Tyuilri katta saroy qurdirdi. Fransuz qirolli Yevropadagi boshqa saroylarni ortda qoldirishni orzu qilgan. Klassik formalaridagi g'oya, Fransiya uchun yangi katta keng ko'lamdagi Tyuilri plani qat'iy simmetriyaga bo'ysundirilgan. Me'mor gotika an'analari sodiq, hamda kech Italiya Uyg'onish davriga xos bo'lgan detallarga katta e'tibor bergan. F.Delorm o'zining arxitektura sohasidagi kitoblarida, yangi qurilish texnika va texnologiyalari haqida yozgan.

«Delorma arkali» ahamiyatli qiziqish uyg'otadi. Ular yordamida



Parijdagi Lamber mehmonxonasi, 1645 y. arx. L.Levo. Xovlidan ko'rinishi.


50 m gacha bo'lgan bino proleklarini yopish mumkin bo'lgan.

Jan Byullan (1510-1578) yillarda ijod qilgan. Fransiya yashab ijod etgan buyuk me'morlar qatorida kamtarin o'rin egallagan. Fransuz feodal saroylarida Rim orderlari formalarini zo'rlab kiritishga qo'llashga harakat qildi, ular orqali saroy ko'rinishiga monumental-ulug'vorlik ko'rinishini aks ettirishga erishgan.

J.Byullan ijodi uchun xarakterli narsa Ekuan zamki (ko'shki) orderli peshtoqi, baland tomi bilan ajralib turishni, gotika arxitekturasi an'analarini o'zida aks ettirilishini qaysidir tomonlari bilan gotika arxitekturasi eslatuvchi ko'shk portlari xuddi devorga yopishtirgandek tasvirlangan.


Rim patensionali kalonnalari namuna deb qabul qilingan. J.Byullan har qancha harakat qilmasin portik razmerlari formolari, binoni vertikal, gorizonta bo'lishlarini hal qilib, ham binoni badii mukammal bir butunligiga erisha olmadi.

«Luvr» asl ma'nosi «Louvr» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «bo'ri ini» degan ma'noni anglatadi. Tarixga ko'ra oldin Luvr saroyining o'rnida «bo'rilar ini» joylashgan edi. Boshqa afsonalarga ko'ra u yerda bo'ri ini



Parijdagi Lamber mehmonxonasi. Ikkinchi qavat plani: 1. paradli hovli; 2, 3 – vestibyul; 4-kutubxona; 5, 6 – hovlilar; 7 – bog'

emas, balki bo'rilarni ovlash uchun itlarning yashaydigan joyi bo'lgan. Birinchi bo'lib, «Luvr» degan atamatarixiy manbalarda 1204 yilda Filipp-Avguste davrida uchragan. Filipp-Avguste Luvr saroyini qurmagan, balki qayta qurdirgan. Boshida Luvr o'rta asrdagi mustahkam saroy bo'lib, Filipp Avguste tomonidan 1190 yil barpo etilgan va u Site oroliga boriladigan shimoliy-g'arbiy yo'llarini himoya qilgan.



Versal saroy ansambli. XVII–XIX asr boshi. Bosh plan: 1-Armiya maydoni; 2-saroy binosi; 3-kichik xiyobon; 4-«Appalon» basseyni; 5-katta xiyobon; 6-Trianon.

Filippe Avgustedan boshlanib Luvr qurilishi XIV-asrda davom ettirilgan, hamda bu yerda saroy devori qurilib, u butun shaharni o'rab olgan. Luvr katta bir saroy bo'lib, jar bilan o'ralgan va mustahkam devor bilan himoyalangan. Uncha katta bo'lmagan bu minora o'rmonda joylashgan bo'lib, keyinchalik bu minorada davlat jinoyatchilarini hibsga olib, u yerda saqlashgan.

Keyingi qayta qurilishidan so'ng saroy qirol qarorgohiga aylandi. Bu hol V-asrda yuz berdi. U orol Sitega nisbatan Luvr saroyida o'zini xavfsizroq deb his qilgan. Karl V-ning hayotida bir daxshatli voqea yuz bergan va u bu kuni bir umrga eslab qolgan. Shu kuni Konserjeridagi saroy xonasiga parij bosqinchilari bostirib kirib, ko'zining oldida yaqin insonlarini o'ldirib ketishgan. Qasr arxitektori Raymon dyu Tampil Luvrni kengaytirdi, unda birinchi bor vintsimon zinapoya o'rnatildi, o'sha davrda bu zina mo'jiza deb sanalardi. Luvr saroyi atrofida joylashgan turar joy va maishiy qurilmalar o'zining ulug'vorlik xarakterini yo'qotgan, ular uzun zallarga aylantirildi, emalli plitkalar bilan bezatilgan, tashqi zinalar bilan bog'langan. O'sha o'rta asrlardan saroy bizning kunlarga qoqlanib qolmagan, XV asrda Fransiskoning qarori bilan saroyning sezilarli katta qismi boshqa bir saroy qurilishi uchun ko'chirib olib ketilgan. 1546 yil Fransisko arxitektor Per Leskoga saroyning qolgan qismini tashqi talablar va rassomlik didi bilan tubdan qayta qurishni buyurdi. Per Lesko ijodiy xaykaltarosh do'sti Jan Ru Jon bilan yangi loyihani ishlab chiqdi. Ya'ni, bu proekt ko'zga tashlanarli saroy bo'lib, u donjon o'rmiga qurilishi kerak bo'lgan. 1564-1567 yillari katta Galereya qurildi, bu Galereya Luvrda «Flora pavilon» ning burchagigacha o'tkazilgan. Galereya hozirgi kunda eng uzun hisoblanib uning uzunligi 442 metrni tashkil etadi. Luvr saroyi asrlar mobaynida ko'pgina qirollar tarafidan qurilgan edi. Saroyning katta qismini oxirgi bo'lib Lyudovik XIII vaqt o'tib XVII asrda Luvr saroyiga e'tibor yanada kuchaya boshladi. Arxitektor J. Lemersening taklifi «proekti» bo'yicha saroyning 1624 yili g'arbiy qismi 2 barobariga uzunlashtirgan qismi «Pavilon Syulli» hisoblanib, uning tepasiga soat minorasi qurilgan. Minora esa kesik gumbaz bilan tugallangan edi. 1661 yili arxitektor Lui Levo saroyning janub va sharq chekka qismlarini ko'tardi. Buning oqibatida saroyning katta kvadrat shaklidagi ochiq hovlisi berkitildi. 1667 yili Luvrning sharqiy tarzini yanada go'zalroq holatga keltirish to'g'risidagi proekt yaratildi. Bu proekt tantanali maydonni bezatish uchun taklif qilinib, amalga oshmagan edi. Luvrning tarzi, tashqi ko'rinishi, ya'ni go'zal korinf orderlari ikkilangan kolonnalarining ritmlari. Klod Pero tarafidan konkursda ishtirok etdi. O'ylab topilgan tarz faqatgina Parijda emas, balki butun Fransiya davlati bo'yicha, ya'ni uyg'onish davrining eng hashamatli, ulug'vor, me'moriy kompozitsiyasi deb tan olindi.

Konkursda arxitektor Fransua Mansar va Italiya barokko uslubining mashhur me'mori Lorenzo Bernini ham qatnashdi. Bular ichidan eng zo'r proekt Luvr saroyi deb tan olinib, Klod Pero g'olib deb belgilandi. L. Bernini Parijga konkursga kelayotganida uni xalq va saroy odamlari qabul qilib izzat-hurmat bilan mehmon qilishdi. Ammo uning konkursdagi arxitektura san'atida orqada tashlangan qadam deb aytilgandan so'ng, undan ko'pchilik yuz o'girdi.

Klod Peroning proektida sharqiy tarzning markazida arkaning tepa qismi relef tasvirlar bilan bezatilgan bo'lib, bu tasvir Appolonning ikki g'ildirakli jang aravasi edi. Lyudovik XIV o'zining allegoriyasi uchun Appalanni tanlagan. Luvrning qurilishi 1680 yilgacha davom etgan bo'lib qolgan ham mablag'lar Versal qurilishiga o'tkazilgan. Versalning juda ham go'zal bo'lib ketganligi tufayli «Qirol va qirolicha» ning qilgan tanlovlari tufayli, Luvr bir necha yillar mobaynida o'zining qadrini yo'qotadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

- 1) XVI Fransuz arxitektura maktabining yaratilishi?
- 2) F. Delorma ijodi?
- 3) J. Byullan ijodi?
- 4) P. Lesko va J. Byullan ijodi?
- 5) Luvr saroyi qurilishi?


Mavzuda uchraydigan tayanch so'zlar:

Renessans, kalonna, order sistemasi, peshtoq, ko'shk-saroy, Luvr saroyi.


**11-Mavzu. XVII asrning birinchi yarmida
Fransiya arxitekturasi**

XVII asrga kelib, Monarxiya tuzumi mustahkamlandi. Viloyatlar markazga bo'ysuntirildi. Absolyutizm o'zining mumtoz ko'rinishini namoyon etdi. Bu mamlakatda burjua munosabatlarning rivojlanishi, uning iqtisodiy mustahkamlanishi ta'minlab, Fransiyani Yevropaning qudratli davlatlaridan biriga aylantirdi. Bu davr «buyuk asr» (Volter) nomi bilan tarixga kirdi. Monarxiya dvoryan va burjua guruhlariga tayangan holda shakllanib, kelayotgan burjua jamiyatining feodalizm bilan kurashishida kuchli qurol vazifasini o'tadi. Milliy madaniyatda ko'tarilish yuz berdi.

Me'morchilik borasidagi yutuqlar keyinchalik Yevropa san'ati rivojida muhim rol o'ynadi. 1671 yilda me'morchilik akademiyasining tashkil etil-



Parijdagi Vogeov maydoni. (sobiq Qirol maydoni), pavilon 1605-1607 y. Fasad




ishi san'at ravnaqida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Klassisizmning rasmiy badiiy-adabiy uslub sifatida e'tirof etilishi san'atning ravnaq topishida muhim rol o'ynadi.

XVII asr shahar va shahardan tashqarida qurilgan me'morlik majmualari, qirol va zadogonlarning qarorgox va saroylari, burjua boylarning uylari klassisizm uslubining rivojlanishida muhim omil bo'ldi.

Mashhur Luvr saroyining sharqiy tomoni ko'rinishi, Versal saroy-bog' majmuasi, ko'plab tantanavor arklar, ko'priklar hamda jamoat binolari qurildi.

XVII asr birinchi yarmi san'ati uslub jihatidan ham rang-barang. Unda bir tomondan Italiya renessansi va borokko ta'siri sezilsa, ikkinchi tomondan klassisizm paydo bo'la boshlagani bilindi, qirolicha Mariya Medichi uchun qurilgan Lyuksemburg saroyi, ayniqsa, diqqatga loyiq. Mansar, Lun Levo, Jak Lemerse kabi me'morlar shu davr yo'nalishlarini o'z ijodida belgilab berdilar.

Parijdagi Cen-Deni darvozasi, 1672 y. arx. F.Blondel. Fasad.




Париждagi Luvr saroyi. XVI-XIX asr. Bosh plan

XVII asr Fransuz san'ati ikki davrga ajratib o'rganiladi. Bu Fransiyaning siyosiy ahvoli va rivojlanishi bilan bog'liqdir. XVII asrning birinchi yarmida hali absolyut Monarxiya to'la hukmronlikka erishmagan, keng omma jamiyatning siyosiy hayotida ishtirok etmagan edi. Bu san'at va madaniyatda turli oqim va yo'nalishlarni keltirib chiqaradi, turli mavzu va ishlash usullari bo'lishini ta'minladi, qirol saroyi bilan bog'liq va rasmiy-badiiy hayotda yetakchi o'rinni egallagan san'atkorlar ijodida dekorativlilik va serhashamlik hamda jimjimadorlikka intilish kuchaydi. Voqelikni bir muncha jadallashtirib ishlashga intilish ular ijodida borokko san'atining nafislashib borayotgan ko'rinishini namoyon etadi.

XVII asrdagi Fransiya arxitekturasida saroy qurilishlariga e'tibor kuchli edi. Jamoat inshootlarini qurilishi ikkinchi planda bo'lgan. O'sha davr uchun ahamiyatli bo'lgan jamoat binolaridan biri nogironlar uchun qurilgan hospital binosi hisoblanadi.

1671-1678 yillarda qurilgan to'rt irq uchun mo'ljallangan kollej binosi. Ushbu kollej chegaradan tashqaridagi qo'lga kiritilgan rayon dvoryan o'g'il-qizlari uchun qurilgan.



Париждagi To'rt millat kolleji (Mazarini kolleji), 1662-1672 y. Arx. L.Levo. Fasad.

Kollej 1662-1672 yillarda arxitektor Levo loyihasi asosida qurilgan. Kollej fasadi Luvr qirg'og'i qarama-qarshisida, murakkab markazga chizilgan hajmiy kompozitsiyaga ega bo'lgan bino.

XVII asr serkov arxitekturasida Fransiya cherkov arxitekturasida Rim barokkosidagi ba'zi bir kompozitsion sxemalar, yo'nalishlaridan foydalanilgan. Fransiya klassisizmi, Fransiya san'ati, arxitekturasiga xos bo'lgan elementlar bilan sug'orilgan holda namoyon bo'ladi. Parijdagi eng ahamiyatli bo'lgan Sorbonn cherkovi 1590-1660 yillarda arxitektor Lemerse loyihasi asosida qurilgan. Valde Gras cherkovi arxitektor F.Mansara loyihasi asosida qurilgan. Nogironlar uchun gospital (1780-1706) J.A.Mansara loyihasi asosida qurilgan. Napoleon maqbarasi sifatida katta ahamiyat beriladigan bino hisoblanadi.

Nogironlar uchun gospital cherkov binosi manumental madaniy binolarning namunasi hisoblanadi. Shahar markazida o'zining gotik shpillari, Italiya Uyg'onish davri an'analari asosida bezatilganligi bilan ajralib turadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1) XVII asrning birinchi yarmiga kelib, Fransiyada «absolyutizm» haqida gapirib bering.

2) Lyudovik XIII davridagi Fransiya arxitekturasida haqida gapirib bering.

3) Fransiyada umumiyevropa barokkosi asosida klassisizmning paydo bo'lishi haqida gapirib bering.

4) Parijdagi «Val de Gras» ibodatxonasi haqida gapiring.

Mavzuda uchraydigan tayanch so'zlar:


Absolyutizm, Monarxiya, klassisizm, Parijdagi Val de Gras ibodatxonasi, Lyudovik XIII, Lyudovik XIV, oqsuyaklar.

12-Mavzu. XVII asrning ikkinchi yarmida Fransiya arxitekturasida

Lyudovik XIV (1661-1715) podsholik qilgan davrda ham absolyutizm o'zining eng mukammal ko'rinishiga erishdi, ham inqirozga yuz tuta boshladi. Dastlabki yillarda absolyutizm ma'lum ma'noda mamlakatning milliy iqtisodiy jonlanishi, manufaktura sanoati rivojlanishi uchun xizmat qilgan bo'lsa, keyinchalik u mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga asta-sekin to'sqinlik qila boshladi.


Lyudovik XVI olib borgan urushda hamda saroy kibarlarining haddan tashqari serhashamlikka intilishi, tantanali bayramlari, turli marosimlari

xalqning ahvolini og'irlashtiradi, g'alayonlarini keltirib chiqaradi. Biroq Lyudovik XVI davri san'at va madaniyatga kuchli ta'sir ham ko'rsatdi. Agar XVII asr birinchi yarmida san'atda turli oqim va yo'nalishlar bo'lishiga imkoniyat bo'lsa, keyinchalik esa faqat absolyutizmni ulug'lash va unga sajda qilish san'atining bosh yo'nalishi bo'lib qoldi. Chunki klassisizm bu davr mafkurasi uchun mos tushdi va shu davrning asosiy uslubi bo'lib qoldi. Lekin bu yo'nalishdagi asrlarda klassisizmga xos ulug'vorlik, tantanavorlikdan ko'ra his-hayajonga to'la barokko ta'siri kuchli bo'ldi. Klassisizm davrining asosiy yo'nalishiga aylanishida 1648 yilda tashkil etilgan Badii Akademiyaning ayniqsa, sezilarli bo'ldi. Akademiya bu davrda absolyutizm targ'ibotchisi sifatida mamlakat badii hayotiga hukmronlik qildi. Akademiya tomonidan ishlab chiqilgan va san'atni «tartibga» solish sohasidagi bu qonun-qoidalar davr san'atida yagona yo'nalish hukmron bo'lishiga va san'atda rang-baranglikning yo'qolishiga sabab bo'ldi. Bu davrga kelib, me'morlik yetakchi san'at turiga aylandi. Absolyutizm hashamatli va katta me'morlik majmualari orqali sharaflandi, san'atning boshqa turlari ham shu yo'nalish bilan bog'liq holda rivojlandi. Aristokratiyaning nafis amaliy buyumlariga bo'lgan




Versaldagi Kichik Trianon saroyi, 1762-1764 y. ichki bezak 1764-1768 y.
arx. J.A.Gabriel

talabini qondirish uchun qirol Gobilen manufakturasini muhim rol o'ynaydi. Bu yerda qirol saroyini bezash uchun zarur uy-anjom buyumlari, mebel va boshqa buyumlar ishlab chiqarildi. Bu buyumlar qirol saroyi zadogonlarini buyurtmasi va talabi asosida bajarildi. Me'mor, haykaltarosh, rassom va amaliy san'at ustalarining hamkorlikda ishlashlari bu yillarda majmualari namunalari yaratilishiga sabab bo'ldi. Xiyobon-bog' (park) san'ati ravnaq topishi, keyinchalik Yevropa san'atining rivojlanishiga katta ta'sir o'tkazdi. XVII asr Fransuz me'morchiligining nafis yodgorligi Versal saroyi majmuasi (1604-1689) yillari qurilgan. Lyudovik XIV ning qarorgohi edi. Lun Levo (1604-1670) yillarda xiyobon-bog' san'ati ustasi Andre Lenotr (1613-1700) yillarda tomonidan boshlangan va me'mor Jyul Ardruen Majar (1646-1708) tomonidan tugallangan bu majmua absolyutizm g'oyalari qirol hokimiyatining abadiyligini aks ettiradi. Bu g'oya majmua



Versaldagi saroy XVII-XVIII asr Arx. L.Levo, J.A.Mansar va b. Ikkinchi qavatning markaziy qism plani. 1-Marmar hovli; 2-Lyudovik XIV ning xonasi; 3-Oynali galareya; 4- «Tinchlik» zali; 5- «Urush» zali; 6-«Apollon» zali; 7-«Merkuriy» zali; 8-«Mars» zali; 9-«Diana» zali; 10-«Venera» zali; 11-14-Qirol xonalari.



1. Versaldagi saroy. Arx. L.Levs, J.A.Mansar. Xiyobon tarafdagi fasad fragmenti, 1668-1689 y.
2. Versaldagi saroy. Oynali galareya. Arx. J.A.Mansar va Sh.Lebren, 1678-1684 y.

kompozitsiyasining yechimida namoyon bo'ladi. Ansambl markazida qiroq qarorgohi-saroyi joylashgan bo'lib, u tevarak-atrofdagi maydonni o'ziga bo'ysundiradi va yaxlitlashtiradi.

Uning atrofidagi tabiat aniq simmetrik reja asosida tashkil etilgan. Saroyning old tomoni serjilo vasodda, binolari esa tantanavor vasipo qilib ishlangan. Saroyning markaziy binosida qabulxona va bal o'tkazishga mo'ljallab qurilgan xonalar dekorativ bezakka boy.

Saroyning markaziy xonasi - qiroqning yotoqxonasi bo'lib, unga boradigan zallarga nihoyatda jozibali bezaklar bilan ishlov berilgan, bezatilishiga alohida e'tibor berilgan. Xiyobon-bog' rejaga muvofiq qat'iy yagona o'q atrofida qurilgan, uning asosiy xiyoboni atrofiga favvora va haykallar simmetrik asosda joylashtirilgan. Markazdagi katta hovuz esa unga tugallik bergan.

Bronza va marmardan ishlangan haykaltaroshlik asarlari xiyobonga ko'tarinki ruh kiritgan.

Versal bog' park san'atini yaratuvchisi Lenotr Parij planirovkasini to'g'ri hal qilgan, Luvr Tyulri g'arbiy-sharqiy qismiga birlashgan.

O'zining umumiy chegaralari, chiziqlari bilan Luvr-Tyulri ansambli kvadrat shaklini eslatadi. Katta to'g'ri to'rtburchak shakliga birlashtirilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:


1. XVIII asr Fransiya siyosiy ijtimoiy shart-sharoitlari haqida gapirib bering.
2. Rokkoko uslubi haqida gapirib bering.
3. «Murosa maydoni» haqida gapirib bering.
4. Me'mor Jak Jerlon Suoffloning yirik diniy qurilmasi haqida gapirib bering.

Mavzuda uchraydigan tayanch so'zlar:

Rokkoko, «Murosa maydoni», Panteon ibodatxonasi.

13-Mavzu. Fransiya XVIII asr arxitekturasi

XVIII asr Fransuz san'ati taraqqiyoti ham ikkiga ajratib o'rganiladi. XVIII asr birinchi yarmi san'ati saroy ahlilari va kiborlarining talabi va didi bilan bog'liq. Me'morlik, amaliy san'atda esa nafislik va jimjimadorlikka intilish yaqqol seziladi. San'atning bu xususiyati bevosita shu davrning asosiy uslubi «rokkoko» uslubida yaqqol seziladi. Lekin bu yo'nalish uzoq yashamadi. Burjuaziyaning mustahkamlana borishi, san'atning keng jamoatchilikka mo'ljallab ishlatilishi uning demokratik yo'nalishini kuchaytirib yubordi. Reamistik yo'nalish mustahkamlanadi.



Parijdagi de Matinon mehmonxonasi.
1720 y. boshlangan. Arx. J. Kurtonn.
Plan: 1-paradli hovli; 2-vestibuly; 3-
paradli zina; 4-7-paradli zallar; 8-
yotoqxon; 9-oshxon; 10-11-otxon;
12-14-xizmat hovlilari; 15-bog'.



Me'morlik. Absolyutizmning susayishi tirik saroy qurilishlarining deyarli to'xtatishga olib keldi. Endilikda burjuaziya yuqori tabaqalari talabi va ishtiyoqi asosida shinam binolar qurish odat bo'lib qoldi. Binoning maqsadga muvofiq bo'lishiga, qulayligiga alohida e'tibor berila boshlandi. Burjuaziyaning uchinchi tabaqasiga mo'ljallangan ko'p xonali turar uylar joylar qurilishi avj oldi. XVIII asrning 20-yillarida yuzaga kelgan rokkoko uslubi 30-40 yillarda o'zining eng gullagan davrini boshidan kechirdi. Me'morlik ansambllarida jimjimadorlikka e'tibor berish kuchaydi. Rokkoko uslubida qurilgan binolarda o'zini klassisizmga xos aniq simmetriya o'zini assimetriya, «tartibsizlik» egallay boshlandi. Binolarning tashqi ko'rinishini jiddiy vasiqo qilgan holda xonalarni bezashga e'tibor ortdi.

Endilikda binolar, ularning xonalari uchun olingan nisbatlar ham yengil va nafislikka ega bo'la boshlandi. Xona ichki qismi yengil «pastel» rangida ishlangan naqshi, mifologiyadan olingan kichik-kichik suratlar bilan bezatilishi ham yo'q qilinib, o'rnini yoy shakli egallay boshladi. Me'mor Jermen Bofforing (1667-1754) inter'eri bezatilishi va xarakteri jihatidan rokkoko uslubining shu o'ziga xos tomonini namoyon etadi. Tanlangan buyumlar ham xona xarakteri va bezagiga moslangan. XVIII asr o'rtalaridan boshlab, rokkoko uslubi kompozitsiyalarning haddan ortiq murakkabligi, jimjimadorligi tanqidga uchray boshladi. Me'morlarni endilikda ko'proq yunonlarning jiddiy va sodda me'morlik san'atlari qiziqтира boshladi.


XVIII asr me'morchiligiga xos uslublar ehtiyotkorlik bilan boyitilib klassisizm o'ziga xos jihatlarini mustahkamlay bordi.

Jak Anj Gabriel (1699-1782) dastlabki ijodida ilk klassisizmga xos jihatlar ko'rina boshlaydi.

Gabrielning yirik asarlaridan biri Parijdagi «Murosa maydoni» (1751-1769) bo'lib, unda me'morning navatorligi namoyon bo'ladi. Bu dastlabki



1. Hansidagi hukumat Maydoni ansambli, 1752-1755 y. Arx. Э.Эре de Kornl.
Umumiy ko'rinish. 2. Parijdagi de Cubiz mehmonxonasi. 1710 y. intererlar bezagi.
Arx. J.Boffran. Ovalli salon.



Parijdagi Cen-Croplis cherkovi. 1733-1745 y. arx. Dj.H.Cervandoni.
Asosiy fasad (loyiha).

ochiq maydonlardan bo'lib, Sena daryosi yoqasiga joylashgan va katta bir ansablni markazlashtirish va tashkil etish uchun foydalanilgan. Maydondan uch tomonga nur singari yo'l ketgan bo'lib, Gabrielning maydon qurish uslubi keyinchalik rivojlangan klassisizm davrida me'morlar tomonidan keng qo'llanilgan. Versal parkidagi «Kichik turianan» deb nomlangan qurilma ham Gabrielning muhim asarlaridan bo'lib, u klassisizmnining dastlabki namunasi hisoblanadi. Tabiat bilan uzviy bog'liq holda qurilgan bu binoda hamma narsa aniq, jiddiy va sodda, detallar nisbati va xarakteri nafis va jozibadordir.



Parijdagi Panteon, 1764-1790 y. arx. J.J.Cufflo. Farbiy fasad. 2. Nogironlar gospitali cherkovi, 1680-1706 y. arx. J.A.Mansar. Janubiy fasad. 3. Parijdagi Luvr saroyi. Sharqiy fasad. Arx. K.Perro.

Asr o'rtalarida ijtimoiy binolar, jumladan teatr, savdo markazlari va shunga o'xshash binolar ko'plab qurildi.

Parijda dastlab Parij homiysi Avliyo Jenevevlar cherkovi uchun mo'ljallangan, keyinchalik Fransiyaning mashhur kishilari maqbarasiga aylantirilgan «Panteon» me'mor Jak Jermen Suforlo (1716-1780) ning eng katta qurilmalaridandir. Klassisizmning yorqin namunasi bo'lgan bu bino rejasi but shaklida bo'lib, u baraban ustiga o'rnatilgan katta gumbaz bilan tugallanadi. Baraban atrofi ustunlar bilan o'ralgan, binoning old tomonida olti ustunli frontonli peshayvon qurilgan. Bino kompozitsiyasi piramidal bo'lib, tepaga ko'tarilgan sari uning detal va qismlari kichrayib, yengillashib borayotgandek tuyuladi. Bu butun binoga vazminlik va xotirjamlik baxsh etadi. Bino devoriga alohida e'tibor berilgan. Haykaltaroshlik, monumetal rangtasvir san'ati hamda me'morlik hajmlari uni ko'rkam bo'lishini ta'minlaydi. Me'morlik inter'eri bilan bog'liq jarayonlar san'atning boshqa turlarida o'z ifodasini topdi.

Me'morlik. Klassisizm tamoyillari dastlab me'morlikda ko'rina boshladi. Bu tamoyillar shaharsozlik san'atida ko'zga ko'rindi. Me'mor Klod Ledu (1736-1806) loyihalarida Shox shahri majmuasi, Gabrielning «kelishuvlar maydoni» me'morlik majmualarida seziladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. XVIII asr Fransiya siyosiy ijtimoiy shart-sharoitlari haqida gapirib bering?
2. Rokkoko uslubi haqida gapirib bering?
3. «Murosa maydoni» haqida gapirib bering?
4. Me'mor Jak Jermen Suoffloning yirik diniy qurilmasi haqida gapirib bering?

Mavzuda uchraydigan tayach so'zlar:

Rokkoko, «Murosa maydoni», Panteon ibodatxonasi.

14-Mavzu. XIX asrda Fransiya arxitekturasi





Feodal dvoryan monarxiyasiga urilgan qaqshatqich zarba XVIII asr oxiri Fransiyadagi burjua revolyutsiya, Fransuz feodal dvoryan arxitekturasi keyingi taraqqiyotiga asos soldi. Revolyutsiya davrida kapital qurilishlar umuman to'xtab qolgan edi.

Keng quloch yoygan qurilishlar Napoleon konsulstvatsida boshlandi. Lekin boshida utimetar xarakterga ega edi. Napoleonni qurilish ishlarining tezkorligi, tejamkorligi qiziqtirar edi. Ushbu me'morli inshootlari uning

hukumati ulug'vorligini ko'rsatishga intildi. Arxitekturada revolyutsiya davridagi va undan oldingi arxitektura g'oyalari qo'llanildi. Misol uchun Rim tipidagi triumfal arkali kolonnalardan foydalanildi. Napoleon o'sha davrda qurilmay qolgan qirol saroylarini katta qurish, ularni yangi dekorativ bezash ishlari olib borildi. Masalan katta tanlangan saroylar qatoriga Luvr-Tyulri, Fonteneblo va Malmazon saroylari kiradi.

Napoleonni asosiy me'morlaridan biri Sh.Perse (1764-1838) va P.F.Fonten (1762-1853) qator yillar davomida Italiyada bo'lib, yangi Fransuz stilistik obrazlarini yaratishda yetakchi rol o'ynagan me'morlar hisoblanadi. Italiya me'morchiligi asosida uni qayta ishlash hisobiga o'ziga xos Fransuz dekorativ san'ati, me'morchiligi yaratildi.

Napoleon davrida yaratilgan yoki boshlangan yirik manumental inshootlarga Parijdagi «Karusel» arkasi 1806 y. arx. Perse va Fonten, yulduzlar arkasi Shalgren, 1806-1836 y. Vondam kolonnasi J.B.Lener va J.Gonduen 1806 yilda qurilgan. Parij birja binosi arx. A.T.Bronyar va E.Delaberr 1808-1827 yillarda qurilgan.



1. Parijdagi Madlen cherkovi, 1807-1842 y. Arx. P.Vinon, J.Ove. Umumiy ko'rinish.
2. Parijdagi Yulduzlar tromfal arka, 1806-1836 y. arx. J.F.Shalgren. Umumiy ko'rinish.
3. Parijdagi la Villet tumanidagi xarbiy bo'linma, 1785-1789 y. arx. K.H.Ledu. Umumiy ko'rinish.
4. Parijdagi birja, 1808-1827 y. Arx. A.T.Bronyar, E.Delaberr. Umumiy ko'rinish.

Yulduzlar arkasi manument sifatida Napoleon armiyasi-yangi imperiyani tayanchini ifodalovchi qurilmadir. Parijning loyihasiida arkani o'zini joyi va ahamiyati mavjud. Arka yuqorida aylana maydonda joylashgan arka parlament alleyasi va Elisit maydonlari bilan tutushib ketgandek ko'rinadi. G'arbga qarab ketuvchi Luvr Tyulri bilan birlashib ketadi. XIX asrda arkani shaharsozlik roli va ahamiyati ajratib ko'rsatilgan.

Napoleon imperiyasi manumental arxitekturasi antik klassikaga yaqin ruhda qurildi. Ba'zi bir bino tiplaridan, alohida formalardan vabirinchi o'rinda order namunalaridan foydalanildi. Orderli portiklar katta tekis devorlarga qarama-qarshi o'rnatilgan huddi Burbon saroyidek.

Keyingi yillardagi me'morlar ijodida ekliktika elementlari kurtak yozayotga edi. Keyinchalik esa bu butun Yevropa mamlakatlari arxitekturasi ta'sir ko'rsatdi.

Fransiya uyg'onish davri arxitekturasi, barokkosi va klassisizmi XVII asrdan to XIX asrgacha G'arbiy Yevropa arxitekturasi rivojlanishida yetakchi o'rin egalladi. Fransiya shaharsozlik borasida XVII, XVIII asrlarda katta xissa qo'shdi.

Italiya tajribasiga asoslanib, Fransiyadagi spesifik o'zgarishlar ekonomikaning rivojlanishi jamiyat hayotidagi keskin o'zgarishlar Fransiya shaharsozligini keskin rivojlanishiga olib keldi.

Italiya shaharsozligidan o'zining masshtablari, radikal qurilishlari va xaotik tartibda joylashgan o'rta asr shaharlarini joylashishi bilan ajralib turadi. Bir qancha shaharlarda transport magistrallari kengaytirildi, yangi katta maydonlar tashkil etildi. Shaharsozlik talablarini hisobga olgan holda Fransiya tashkil etildi. Asosan Parij shahri, yirik inshootlari, Fransuz manumental klassik arxitekturasi yuzini ko'rsatuvchi inshootlari bilan tashkil etildi. Saroylar, ansambllar qatori shahar tashqarisidagi pomeschchiklarni saroy usadbalari o'zini stilistik xarakteri bilan ajralib turadi.

Mavzuda uchraydigan tayanch so'zlar:

Ulkan zafar inshootlari, Yulduz, Karusel, Vandam ustuni, Ampir usuli, tilyaster.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Napoleon davri arxitekturasi haqida gapirib bering?
2. Napoleon davri me'morlari ijodlari haqida gapirib bering?
3. Zafar inshootlari haqida gapirib bering?
4. XIX asr shaharsozligi haqida gapirib bering?
5. XIX asr Fransiya me'morchiligining o'ziga xosligi haqida gapirib bering?


15-Mavzu. XVIII asr rus klassisizmi

XVIII asr oxiriga kelib Rossiya Yevropadagi yirik davlatlardan biriga aylandi. Demokratiyaning cheklangan imtiyozlari jamiyat ijtimoiy hayotidagi ziddiyatlarni yanada kuchaytirdi. Feodal-krepostnoylik jamiyati bilan shakllanib kelayotgan kapitalistik munosabatlar orasidagi keskinlik ortib bordi. 1812 yili Fransiya qo'shinlari bilan bo'lib o'tgan urushdan so'ng bu keskinlik yanada avj oldi. Rossiyaning ilg'or ziyolilari hukm surayotgan krepostnoylik tuzumining bekor qilinishini talab qilib chiqdilar. 1825 yil bo'lib o'tgan, tarixda «dekabristlar qo'zg'aloni» deb nom olgan g'alayonlar yuz berdi.


Me'morlik. XIX asr boshlarida rus me'morligi ravnaq topdi. Davrning ilg'or g'oyalari shu vaqtda qurilgan yirik me'morlik kompozitsiyalarida namoyon bo'ldi. Qurilish texnikasi mukammalashishi, jumladan, me'morlikda metallning keng ishlatilishi ham shu davr me'morchiligi ko'rinishiga ta'sir qildi.

Shahar me'morlik majmualari yangi kompozitsiyalar bilan boyib bordi. Me'morlarning haykaltarosh hamda rassomlar bilan ijobiy hamkorligi san'at sintezining ajoyib namunalarining yaratish imkonini berdi.

XIX asr boshlarida Peterburgda qurilgan Qozon sobori qurilish texnikasi nuqtai nazaridan ham, badiy bezatilishi jihatidan ham diqqatga sazovordir. Uning yangi konstruksiyasida sobor gumbazining metall stropilida ishlanishi qurilishda gigant monolitlardan monumental dekorativ haykaltaroshlik san'atidan o'rinli foydalanishi binoga betakror joziba baxsh etadi. Bu nodir yodgorlik muallifi Andrey Nikiforovich Voronixidir. (1759-1814).



1. Peterburgdagi Aleksandr teatri.
2. Peterburgdagi me'mor Rossi ko'chasi., 1828-1832 y.




Peterburgdagi Senat va Sinod binosi, 1829-1834 y. arx. K.I.Rossi. Fasad fragmenti.


Me'mor qozon soborini qurilishida uni tevarak atrof, ayniqsa, Neva prospekti bilan mutanosib uyg'un bo'lishiga e'tibor berdi. Yarim aylana tarzida, Neva prospektini go'yo o'ziga tortib turgandek qilib ishlangan bu kompozisiya maydon va ko'chalarni o'z atrofida yaxlit birlashtiradi.

Rus klassisizmining yuksak cho'qqisi shu davrning taniqli me'mori Andrey Dmitrevich Zaxarov (1761-1811) ijodida namoyon bo'ldi. Zaxarov bir qator yuksak me'morchilik loyihalarini yaratdi. Shulardan biri Admiralteystvo binosidir.

XVIII asr boshlarida rus me'mori Korobov tomonidan asos solingan bu binoni ta'minlashda Zaxarov uning umumiy korpuslari, konfiguratsiyasi va me'morlik nuqtai nazaridan muhim bo'lgan qismlarini birinchi galda oltin suvi yuritilgan mashhur shtel (nayza) ni saqlagani holda, uni yangi ma'muriy bino, muzey va kutubxona binolari bilan boyitdi. Binolarning badiiy bezagi uchun esa mashhur haykaltaroshlar jalb etildi.



Peterburgdagi Admiralteystvo, 1704 y. 1727-1738 y da qayta qurilgan. arx. I.K.Korobov. Minora fasadi



Toma de Tomon (1760-1813). Asli Shvesariyalik bo'lgan bu me'mor 1799 yildan boshlab Rossiyada ijod qilib, uning me'morchiligi rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Uning mashhur asarlaridan biri Peterburgdagi Birja binosi (1805-1810) hisoblanadi.

Bino baland supa ustiga qurilgan, atrofi ustunli galereya bilan o'ralgan. Old tomonidagi yarim aylana shaklidagi maydon chekkasida baland rastarol ustun-mayoqlar mavjud. Bino bezatilishida allegorik haykallardan keng foydalanilgan.

1812 yil urushi tugaganidan keyin vayron bo'lgan Moskvani qayta qurish, tiklash, uni ta'mirlash borasida katta ishlar qilindi.


Peterburgdagi Admiralteystvo, 1806-1823 y. arx. A.D.Zaxarov.
Binoning markaziy qismi (minora).

Bu ishlardan me'morlardan I.D.Jilyardi (1788-1845) A.N.Grigorev (1782-1867) O.I.Bove (1784-1834) faoliyati muhim o'rin egallaydi.

Osip Ivanovich Bovening loyihasi bo'yicha Kremel atrofida katta ta'mirlash ishlari olib borildi. Bugungi qizil maydon ko'rinishi o'sha paytda shakllandi. Uning yonida Moskvadagi birinchi ijtimoiy-jamoatchilik bog'i tashkil etildi.

Yangi binolar qad ko'tardi. Kreml me'morchilik kompleksi shahar me'morchilik kompleksining markaziga aylandi. Moskvadagi katta teatr va uning oldidagi maydon ham Bove loyihasi asosida ishlangan. Dominiko Jilyardi urush yillarida yonib ketgan Moskva Universiteti binosini qayta qurish ishlari bilan shug'ullanib, uning asosiy loyihasini saqlagan holda, peshtoq gumbazini bezaklar bilan boyitib, so'ngi rus klassisizmining yorqin namunasini yaratdi.


Karl Shanovich Rossii (1775-1849) nomi Peterburg bilan chambarchas bog'liq. Shahar quruvchi sifatida topilgan bu me'mor




Peterburgdagi Admiralteystvo 1806-1823 y. Arx. A.D.Zaxarov. 1. Admiralteys maydoni tomonidagi fasad. 2. Qishki saroy tomonidagi fasad. 3. Bosh plan. 4. Heva tomonidagi pavilon fasadi. 5. Vestibulyl qirgimi. 6. Olti ustunli portik Barelef. 7. Ikkinchi etaj dʻerazasi. 8. Asosiy minora fasadi. 9. Fasad orderi.

binolari bugungi Peterburg qiyofasini belgilashda muhim oʻrin tutadi. Imoratlar doim katta maydon, muhim koʻcha va xiyobonlar bilan bogʻliqdir. Uning loyihasi boʻyicha 1819-1829 yillarda Qishki saroy qarshisida Bosh netap va vazirliklar majmualari tugal holga keltirildi. Bu binolar maydon atrofida yarim aylana tarzida qurilgan boʻlib, ular bir-biri bilan ark orqali bogʻlanadi.



Peterburgdagi Mixaylov saroyi (1818-1825) hamda jamoat teatri shu meʼmor ijodidir. Hozir Rus davlat muzey joylashgan bu bino Rossiyaning klassisizmining yirik vakili sifatida namoyon etadi. Bu binoning tashqi va ichki



Peterburgdagi Smolny monastiri, 1748-1764 y. arx. V.V.Rastrelli. 1. Cobor, fasad. 2. Monastirning bosh plani. 3. Asosiy order Kapitelsi. 4. Uchinchi yarus orderining kapiteli. 5. Uchinchi yarus derazasi. 6. Birinchi yarus derazasi.





Peterburgdagi birja. Vasilevskiy orolidagi strelkalar plani va birjaning ko'ndalang qirqimi.




Peterburgdagi birja, 1804-1810 y. arx. J.Toma de Tomon. 1. Oroning umumiy ko'rinishi. 2. Birjaning perspektivasi.

tomonlari yuksak mahorat bilan bezalgan. Me'morning muhim asarlaridan biri Peterburgdagi Aleksandr teatri binosi va uning old tomonidagi maydondir. Rossi bu bino loyihasini yaratishda uning atrofidagi mavjud imoratlarni ham hisobga olib, yagona ansambl yaratishga intildi. Uning markazida teatr binosi turadi. Maydon atrofida joylashgan kutubxona Anichkov saroyi pavilyonlari, vazirlik va boshqa binolar majmuaga uyg'un holda tartibga keltirilgan.



Moskvadagi Golitsinskaya kasalxonasi. 1796-1801. arx. M.F.Kazakov. Fasad sxemasi, rotonda qirqimi, bosh planning sxemasi va rotonda plani.

XIX asr o'rtalarida rus me'morchiligida yangi kompozitsiyalar ustida ishlash, qurilishlarda yangi texnika va materiallardan unumli foydalanishga intilish sezila boshladi. Bu davrga kelib, klassisizmga xos bo'lgan aniqlik, qat'iylik va soddalik shakllanib borayotgan burjuaziya, dvoryan va niqoblarni qoniqtirmay qoldi. Endilikda me'morlar binolar bezagi uchun turli davr uslub unsurlaridan foydalana boshladilar.



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. XVIII asrdagi tarixiy shart-sharoitlarga xarakteristika bering?
2. Rus klassisizmining shakllanishida faol ishtirok etgan me'morlar haqida gapirib bering?
3. A.D.Zaxarov, Toma de Tomon, O.I.Bove, Jilyardirlar ijodi haqida gapirib bering?

Mavzuda uchraydigan tayanch so'zlar:

Shpil, dvoryanlar, burjuaziya, rastarol ustun-mayoq, friz relief, haykallar.

Moskvadagi Katta teatr. 1821-1824 y. Arx. O.I.Boev va A.A.Mixaylov. Litografiya A.Diorana, 1845 y. 2. Moskva universiteti, 1817-1819 y. qayta qurilgan. Arx. D.I.Jilyardi.

XULOSA

Ushbu o'quv qo'llanmada XV-XIX asrlarda Yevropadagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'rifiy va madaniy hayotdagi sodir bo'lgan voqealar yoritiladi.

Me'morchilikning rivojlanishi, qurilish texnikasi, qurilish materiallari, me'moriy uslublar, ularning yaratilishi haqidagi ma'lumotlar berilgan. Yangi uslubda ijod etgan me'morlar va ularning ijodlari to'liq yoritilgan. Uyg'otish davri me'morlari oldingi davrga asosan qadimgi dunyo me'morchiligini o'rganib, uning natijasida yangi Uyg'onish davri me'morchiligini yaratdilar.

Barokko uslubining yaratilishi, uning asoschilari, Barokko uslubi asosan Italiyada vujudga kelganligi va so'ngra butun Yevropaga tarqalganligi, keyinchalik esa rokoko uslubining yaratilishi haqida ham fikr yuritiladi.

O'quv qo'llanmada klassisizmning vujudga kelishi, klassisizmnirg vatani esa Fransiya ekanligi, uning vujudga kelishi, klassisizm uslubida ijod etgan buyuk me'morlar va ular yaratgan inshootlar haqida materiallar o'rin olgan.

Bu davrda Yevropa san'ati, me'morchiligi avvalgi an'analari, eng avvalo, Uyg'onish davri an'analari zaminida kamol topdi. Unda inson, uning jismi, his-tuyg'u, xayol-o'ylari, orzu-istaklari ifodasi asosiy mavzu bo'ldi. Tabiat rel'efi shu davrda yaratilgan me'morchilik majmualarida o'z aksini topdi. Me'morchilik binolari ko'cha, maydon va tabiat bilan yanada uyg'unlashdi. Suv kaskadlari va favvoralariga qiziqish ortdi.

XVII asr «Barokko asri» deb nom oldi. XVII asr me'morchiligining o'ziga xos jihatlarini ta'riflash uchun qo'llanilgan barokko uslubining belgilari dastlab Italiyada paydo bo'ldi.

XVII asrga xos yana bir yirik badiiy uslub bo'lgan klassisizm esa Fransiyada paydo bo'ldi. Klassisizm vakillari aql-idrokni san'atga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi yagona me'zon deb hisoblashgan.

Klassisizm uslubi tarafdorlari ham uyg'onish davri me'morligidan ilhomlandilar. Klassisizm uslubi Yevropaning barcha davlatlari qatori Rossiyaga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - T: O'zbekiston. 1998 y.
2. Всеобщая история архитектуры: книга 1 и 2 под. ред. Б.П.Михайлов. Москва. 1963 г.
3. Всеобщая история архитектуры. Том. I, II, III, IV, V, VII.
4. Саворенская Т.Ф. История града строительного искусства. М. 1984 г.
5. Abdullaev N. San'at tarixi. 1, 2-jildlari. Toshkent. 1979 y.
6. Ткачев В.Н. История архитектуры. Москва 1987 г.
7. Salohutdinov X.A. Fir'avnlr mamlakati. T. 1992 y.
8. Miryusupova M.X. Qadimgi dunyo va o'rta asrlar davri arxitekturasi. O'quv qo'llanma. TAQI. 2002 y.
9. Буркардт Я. Культура Италии в эпоху Возрождения. Т. I, II, III.
10. Венедиктов А.И. Венеция. Архитектурные памятники. М. 1938 г.
11. Геймюллер Г. Архитектура Ренессанса в Госкание. М. 1941 г.
12. Дживелегов А. Начало Италиянского Возраждения. М. 1925 г.
13. Михайлов П. Архитектурные памятники Рима. Эпохи Возраждения. Вып. 1. М. 1939 г.
14. Летаруйи П. Архитектурные памятники Рима. Эпохи Возраждения. Вып. 1. М. 1939 г.
15. Вархип Д. Париж. Архитектрные ансамбли города. М. 1937 г.
16. Брунов Н. Дворцы Франции XVII и XVIII веков. М. 1938 г.
17. Быков В.Е. Архитектура Италии и Франции XVII столетия. М. 1958 г.
18. Laprade A. Francois d'Orbay Architekthe du voi Paris. 1960.
19. Аркин Д. Растрелли. М. 1954 г.
20. Охенков Г.Д. Архитектор Томон. М. 1950 г.
21. Михайлов А.И. Баженов. М. 1951 г.
22. Пилявский В.И. Зодчий России. М. Л. 1951 г.
23. Шквариков В Планировка городов России XVIII-начало XIX в. М. 1936 г.
24. Тихамиров Н.Я. Архитектура подмосковных усадеб. М. 1955 г.
25. Internetdan olingan materiallar saydlari: <http://www.Luvre.historic.ru/history/st03.shtml>

Miryusupova M.X.

ARXITEKTURA VA SHAHARSOZLIK TARIXI

«UYG‘ONISH DAVRI ME‘MORCHILIGI»

(XV-XIX ASRLAR)

O‘quv qo‘llanma

Nashr uchun mas‘ul:

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

Adabiyot jamg‘armasi direktori

Qurbonmurod Jumayev

Muharrir:

Faxriddin Hayitov

Musavvir va texnik muharrir:

Akbarali Mamasoliyev

Sherzod Irzoev

Musahhah:

Mahfuza Aminjonova

Terishga berildi 04.10.2005 y. Bosishga ruxsat

etildi 10.12.2005 y. Qog‘oz formati 60x84 $\frac{1}{16}$.

Ofset bosma usulida bosildi. Nashr bosma

tobog‘i 5,0. Nusxasi 500.

Buyurtma № 115

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot

jamg‘armasi, 700000, Toshkent,

J-Neru ko‘chasi, 1-uy.

«AVTO-NASHR» sho‘ba korxonasi

bosmaxonasida chop qilindi.

7000187, Toshkent shahri, 8 mart ko‘chasi, 57-uy.